




MILLIY ARMIYA – ONA YURT QALQONI, TINHLIGIMIZ POSBONI!

VATAN UCHUN, MILLAT UCHUN, XALQ UCHUN!

VATANPARVAR



MILLIY ARMIYA – MARDLIK VA JASORAT RAMZI!



IJTIMOIY-SIYOSIY, MA'NAVIY-MA'RIFIY,
HARBIY-VATANPARVARLIK GAZETASI

GAZETA 1992-YILNING
4-IYUNIDAN CHIQA BOSHLAGAN
WWW.MV-VATANPARVAR.UZ

2026-YIL 27-MART
№13 (3179)



Yuksak ma'naviy salohiyat

YANGI O'ZBEKISTON ARMIYASINING

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, Qurolli Kuchlar Oliy Bosh Qo'mondoni Shavkat Mirziyoyev alohida urg'u berib ta'kidlaganidek, bugungi kunda harbiy-jangovar salohiyat va yuksak ma'naviy salohiyat O'zbekiston Qurolli Kuchlarining ikki mustahkam tayanchiga aylanishi hayotiy zaruratsdir. Zero global xavfsizlik muhiti keskin o'zgarib borayotgan hozirgi davrda urushning tabiati, mazmun-mohiyati ham mutlaqo yangicha qiyofa kasb etmoqda.

XXI asrda jangovar to'qnashuvlar faqat front chizig'ida sodir bo'lmayapti. Ular inson ongida, tafakkurida, hatto qaror qabul qilish jarayonida kechmoqda. Bugungi kunda axborot xurujlari, kibertahdidlar, mafkuraviy bosim va ruhiy ta'sir vositalari zamonaviy "gibrid urush"ning eng xavfli, ko'zga ko'rinmas, ammo hal qiluvchi quroliga aylandi.

Shu bois jahon va mintaqamizdagi notinchlik o'choqlari, tobora kuchayib borayotgan geosiyosiy qarama-qarshiliklar har bir davlat oldiga mutlaqo yangi talab qo'yimoqda.

PREZIDENT BELGILAB BERGAN STRATEGIK VAZIFA

Davlat rahbari tomonidan ilgari surilgan g'oya mohiyati shundaki, bugun Qurolli Kuchlardan texnik ustunlik bilan birga ma'naviy-ruhiy barqarorlik, mafkuraviy immunitet va ichki irodaviy kuch talab etilmoqda. Chunki zamonaviy xavfsizlik muhitida g'alaba, avvalo ongda, so'ng maydonda qo'lga kiritiladi. Bu oddiy tarbiyaviy ishlarni kuchaytirishdan ancha yuqori turib, harbiy xizmatchi shaxsiyatini chuqur va tizimli ravishda qayta shakllantirish, uning dunyoqarashi, fikrlash tarzi va hayotiy pozitsiyasini yangi bosqichga olib chiqish demakdir. **Armiyada shunday avlod kamol topishi lozimki, u har qanday axborot xurujlari, ruhiy bosim yoki g'oyaviy ta'sir sharoitida ikkilanmasdan qaror qabul qiladigan, o'z burchiga sadoqatni ichki ehtiyoj va hayotiy prinsipga aylantirgan shaxs bo'lsin.** Bu vazifa bejiz qo'yilgani yo'q. Uning ildizlari chuqur tarixiy va ma'naviy asoslarga ega. Shonli tariximiz, buyuk ajdodlarimiz, yengilmas sarkardalarimiz jasorati bugungi kun uchun ham beqiyos ibrat maktabidir. Ulardan meros bo'lib qolgan "Bilagi zo'r - birmi yengar, ongi va yuragi zo'r - mingni" degan hikmat zamonaviy harbiy tafakkurning mazmun-mohiyatini yaqqol ifoda etadi.

Shu ma'noda **harbiy ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida, milliy o'zligimiz va egzu qadriyatlarimizga sadoqat asosida tarbiyalash bugungi kunning eng ustuvor va kechiktirib bo'lmaydigan vazifasiga aylandi.**

Xavfsizlik kengashining kengaytirilgan yig'ilishida davlatimiz rahbari tomonidan mamlakat mudofaa tizimi oldiga qo'yilgan mutlaqo yangi, mazmunan chuqur va strategik ahamiyatga ega vazifa - Qurolli Kuchlarda jangovar tayyorgarlikni ma'naviy-axloqiy barqarorlik bilan uzviy uyg'unlashtirish, harbiy xizmatchining ruhiy qudratini armiyaning asosiy tayanchiga aylantirishdan iborat bo'ldi. Ushbu

yo'nalishda so'nggi yillarda keng ko'lamlil, maqsadli va samarali ishlar amalga oshirildi.

Xususan, Prezident topshirig'i ijrosi doirasida mudofaa vazirining vatanparvarlik targ'iboti, ma'naviy-ma'rifiy ishlar hamda yoshlar masalalari bo'yicha maslahatchisi bo'limi hamda tegishli mutaxassislar tomonidan qo'shinlarda har tomonlama tayyorgarlikka ega, g'oyaviy va axborot xurujlariga qarshi mustahkam mafkuraviy immunitetga ega, o'z xizmat burchini sadoqat va vijdon bilan bajaradigan harbiy xizmatchilarni tarbiyalashga qaratilgan tizimli chora-tadbirlar izchil davom ettirildi. Natijada **"G'oyaviy jangchi" konsepsiyasi hamda "Kuchli ma'naviyatli harbiy xizmatchi" modeli ishlab**

Uning harbiy falsafasi jang taktikasi bilan birga inson irodasi, qat'iyati va ruhiy barqarorligiga tayangan tizim edi.

"Temur tuzuklari"dagi:

"Tajribamda ko'rilgankim, azmi qat'iy, tadbirkor, hushyor, mard va shijoatli bir kishi mingta tadbirsiz, loqayd kishidan yaxshiroqdir", degan qat'iy xulosa buning yaqqol dalilidir. Bu fikr orqali sarkarda jang maydonidagi ustunlikni son yoki kuch bilan emas, balki insonning ichki qudrati, irodasi va ongli harakati bilan belgilagan.

E'tiborli jihati shundaki, mazkur g'oya bugungi ilg'or harbiy psixologiya nazariyalari bilan to'liq uyg'un bo'lib, zamonaviy ilmiy yondashuvlar bilan ham o'z tasdig'ini topmoqda. Ya'ni milliy harbiy tafakkurimiz nafaqat

zamonaviy standartlarga mos, balki ayrim jihatlarida ulardan ancha ilgariroq va mukammal shakllanganini ko'rish mumkin.

"Kuchli ma'naviyatli harbiy xizmatchi" modeli jahon tajribasidan uzilgan holda emas, balki ilg'or harbiy ta'lim va axloqiy tarbiya konsepsiyalari bilan konseptual uyg'unlikda ishlab chiqilgani bilan ahamiyatlidir. Dunyo armiyalarida ham so'nggi o'n yilliklarda ma'naviy-axloqiy tayyorgarlik jangovar tayyorgarlik bilan teng darajaga emas, balki ayrim holatlarda ustuvor omilga aylandi. Xususan, AQSh Qurolli Kuchlaridagi "Armiya qadriyatlari" konsepsiyasi o'z xizmatchilarida 7 ta asosiy qadriyatni shakllantirishga alohida e'tibor qaratadi. Bular: **sadoqat, burch, hurmat, fidoyilik, sharaf, poklik va jasorat.** Bu qadriyatlar AQSh harbiylarining ma'naviy va axloqiy barkamollik modelini ta'minlashga qaratilgan.

Yevropada harbiy xizmatchilar orasida ma'naviy-ma'rifiy ishlar ko'proq madaniy markazlar va psixologik



chiqilib, amaliyotga joriy etildi.

Bu esa armiyada yangi dunyoqarash, yangi ruh va yangi avlod harbiylarini shakllantirishga xizmat qiladigan muhim dastur sifatida namoyon bo'ldi.

TARIXIY ILDIZLAR VA ILG'OR TAJRIBALAR TAHLILI

Har qanday sharoitda ruhiy bosimga qarshi immunitetni shakllantirish va mustahkamlash masalasiga yondashuvda, avvalo, boy va bebaho harbiy tarixiy tajribamiz hamda ilg'or xalqaro amaliyot chuqur va har tomonlama tahlil qilindi. Chunki bugun "yangi" deb taqdim etilayotgan ko'plab g'oya va yondashuvlar aslida xalqimiz harbiy tafakkurida asrlar davomida shakllangan ma'naviy merosning davomidir.

Besh asr muqaddam buyuk sarkarda Amir Temur qo'shin qudratining asosi uning ma'naviy-ruhiy fazilatlarida ekanini alohida ta'kidlagan edi.



MA'NAVIY ARXITEKTURASI

xizmatlar orqali amalga oshiriladi. Masalan, Germaniya Bundesverida ZDV nizomlari orqali intizom, mas'uliyat va fuqarolik qadriyatlarini harbiy tayyorgarlikning ajralmas qismiga aylantirilgan. Shuningdek, harbiy qismlarda maxsus ma'naviyat xonasi tashkil etilgan.

Buyuk Britaniyada "King's Centre for Military Ethics" faoliyati harbiy xizmatchilarda axloqiy qaror qabul qilish, burch va vijdon masalalarini chuqur o'rgatishga qaratilgan. Kanada Qurolli Kuchlarida amal qiladigan "Defence Ethics Programme" va "CAF Ethos" tizimlari harbiy xizmatchining halollik, yaxlitlik va jamoat oldidagi javobgarligini ustuvor qadriyat sifatida belgilaydi. Turkiya Qurolli Kuchlarida esa ichki xizmat to'g'risidagi qonun va nizomlarda sharaf, sadoqat va intizom qat'iy normalar darajasida mustahkamlangan.

Ushbu xalqaro tajribalar bir haqiqatni tasdiqlaydi: zamonaviy armiyada ma'naviy-axloqiy tarbiya qo'shimcha yo'nalish emas, balki jangovar qudratning ajralmas tarkibiy qismi hisoblanadi. "Kuchli

ma'naviyatli harbiy xizmatchi" modeli aynan shu ilg'or yondashuvlarni milliy qadriyatlar va davlat xavfsizligi manfaatlarini bilan uyg'unlashtirgan holda O'zbekiston Qurolli Kuchlarida ma'naviy barqaror, irodaviy mustahkam va sadoqatli harbiy shaxsiyatini shakllantirishga xizmat qiladi.

SHAXSIYATNI TIKLASH, KUCHAYTIRISH PLATFORMASI

"Kuchli ma'naviyatli harbiy xizmatchi" modeli – bu an'anaviy ma'naviy-ma'rifiy ishlarining davomi emas, balki ularning sifat jihatdan yangi bosqichi. Model pedagogika, psixologiya, praktsiologiya va milliy g'oya sinteziga asoslangan holda ishlab chiqildi. Uning markazida "jangovar qudrat" va "yuksak ma'naviyat"ni yagona tizim sifatida shakllantirish g'oyasi turadi.

"Kuchli ma'naviyatli harbiy xizmatchi" modelining 6-bob, 32-bandida qayd etilgan "O'zbekiston harbiy xizmatchilarini jangovar ma'naviy tayyorlashning qiyosiy matritsasi" asosida

jangovar ma'naviy tayyorgarlikni intensivlashtirish texnologiyasi" ishlab chiqildi. Unda harbiy xizmatchining quyidagi 8 ta tayanch fazilatini tizimli ravishda rivojlantirish nazarda tutiladi: **Vatanga, xalqqa va Prezidentga sadoqat, azmi qat'iylik, tadbirlilik, hushyorlik, mardlik, shijoatlilik, intizomlilik, jamoaviy hamjihatlik.** Bu fazilatlar harbiy xizmatchi shaxsiyati, ma'naviy irodasi o'lchanadigan, baholanadigan va amalda shakllantiriladigan ko'rsatkichlar sifatida belgilab qo'yildi. **Harbiy pedagoglar va serjantlar uchun har bir tayanch fazilatni rivojlantirish bo'yicha jami 32 ta intensiv metod va 40 ta tavsifa ishlab chiqildi.**

Modelning asosiy yangiligi jangovar ma'naviy tayyorgarlikni intensivlashtirish texnologiyasi joriy etilganidir. An'anaviy usullarda bir necha oy talab etilgan natijalarni qisqa muddatda, yuqori samara bilan ta'minlash imkoni yaratiladi. Eng muhimi, natija faqat bilim darajasida emas, balki barqaror xulq-atvor, ichki ishonch va shaxsiy pozitsiya shaklida namoyon bo'ladi.

fikrlaydigan va jiddiy qarorlar qabul qila oladigan harbiy kadrlarni kamol toptirishdan iborat.

"Mafkuraviy poligon" o'zaro bog'liq bir nechta modullardan tashkil topgan. Jumladan, tarixiy modul orqali milliy meros, buyuk sarkardalar va ma'rifatparvar ajdodlarimiz hayoti misolida kursantlarda milliy g'urur va jangovar ruh shakllantirilsa, vatanparvarlik moduli orqali ularda Vatanga sadoqat, fidoyilik va harbiy burchga vijdonan yondashish tuyg'ulari mustahkamlanadi. Axborot-tahliliy modul esa yot g'oyalar, axborot xurujlari va dezinformatsiyaga qarshi mafkuraviy immunitetni kuchaytirish, mediasavodxonlik va tahliliy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Shuningdek, har bir modul kursantning shaxsiy tafakkuri va irodasini mashq qilishga yo'naltirilgan, ya'ni bo'lajak harbiy kadrlar nafaqat bilim oladi, balki har qanday ma'naviy tahdid va stress holatida o'z ongi va ruhini barqaror boshqarishni o'rganadi. Modullar bir-biri bilan mukammal uyg'unlashgan holda kursantni zamonaviy xavfsizlik sharoitlariga tayyorlaydi, har bir mashq va baholash jarayoni uning ichki pozitsiyasi va barqaror qudratini mustahkamlaydi. **Shu tariqa "Mafkuraviy poligon" nafaqat ma'naviy va axboriy xavfsizlikni ta'minlaydi, balki yangi avlod harbiylarini strategik fikrlash va zamonaviy tahdidlarga tayyor qaror qabul qilish qobiliyati bilan mukammal shakllantiradi.**

Eng muhimi, mazkur platforma orqali armiya nafaqat jangovar jihatdan kuchli, balki ma'naviy jihatdan barqaror institutsional tizimga aylanadi.

G'ALABA QAT'IYAT VA TAFAKKURDA

Mafkuraviy poligonda toblangan iroda, milliy g'urur bilan mustahkamlangan sadoqat va axloqiy liderlik bilan mukammal uyg'unlashgan kuchli ma'naviyatli harbiy xizmatchi, davlatimiz rahbari ta'kidlaganidek, hech qanday tahdid oldida qalqimaydi, har qanday bosim oldida ikkilanmaydi. Chunki **bunday harbiy xizmatchi uchun Vatanga xizmat ongli tanlov, ichki e'tiqod va hayotiy missiyaga aylanadi.**

Shu ma'noda "Kuchli ma'naviyatli harbiy xizmatchi" modeli Yangi O'zbekiston armiyasining ma'naviy arxitekturasi sifatida namoyon bo'lib, milliy meros, ilg'or xalqaro tajriba va zamonaviy psixologiya yutuqlari uyg'unligida yaratilgan, milliy armiyaning strategik kelajagini belgilab beruvchi mustahkam konseptual platforma hisoblanadi.

Bugungi murakkab va beqaror dunyoda hal qiluvchi omil texnika emas. Asosiy ustunlik ruhiy barqarorlik, iroda qat'iyati va ong mustaqilligidir.

Zero ruhi mustahkam harbiy xizmatchi nafaqat qurolni boshqaradi, balki o'z hissiyatini, qalbini va qarorlarini ham to'liq nazorat qila oladi. Ana shundagina armiyaning jangovar qudrati ichki barqarorlik bilan mustahkamlanadi va haqiqiy ma'noda yengilmas tizimga aylanadi.

Olimjon O'SAROV, mudofaa vazirining vatanparvarlik targ'iboti, ma'naviy-ma'rifiy ishlar va yoshlar masalalari bo'yicha maslahatchisi



"MAFKURAVIY POLIGON" – IRODA MASHQLARI MAYDONI

Zamonaviy xavfsizlik muhiti tahlillari asosida ilk bor "Kuchli ma'naviyatli harbiy xizmatchi" modeli doirasida O'zbekiston harbiy xavfsizlik va mudofaa universitetining Quruqlikdagi qo'shinlar institutida "Mafkuraviy poligon" yaratildi. Agar harbiy poligonda askar zamonaviy qurol-yarog'dan foydalanishni o'rgansa, mafkuraviy poligonda u o'z ongi, hissiyoti va irodasini boshqarishni o'rganadi.

Ushbu poligon "G'oyaviy jangchi" tamoyili asosida harbiy xizmatchilarni tarbiyalashga qaratilgan zamonaviy o'quv-tarbiyaviy makon bo'lib, **uning asosiy maqsadi yuksak ma'naviyatli, vatanparvar, qat'iy e'tiqod va faol hayotiy pozitsiyaga ega, mustaqil**



O'zbekiston mustaqilligining 35 yilligiga

MUSTAQILLIK – UMUMMILLIY TARAQQIYOT VA BIRDAMLIK TUZUGI

Har kuni xizmat manziligga otlar ekanman, erta tongdan shukrona kelfiraman. Yo'l-yo'lakay farzandimni maktabgacha ta'lim tashkilotiga kuzata turib, ona tilida tinchlik haqida yodlagan she'riini takrorlaymiz. So'ng bugungi vazifalarim rejasini xayoldan o'tkazganча Sag'bon ko'chasiga yetib kelaman. Bu transport yo'li Toshkentning eng qadimiy ko'chalaridan biri bo'lib, o'ziga xos boy tarixga ega. Toshkentning Eski shahar qismi hisoblangan bu joy asrlar davomida shaharning iqtisodiy hamda ma'naviy hayotida muhim rol o'ynagan. Toshkentning 12 darvozasidan biri – Sag'bon darvozasi aynan shu ko'cha yo'nalishida joylashgan bo'lib, u shaharni shimoliy hududlar bilan bog'lagan.

SAG'BON SUVRATI

Sag'bon ko'chasi bo'ylab ko'plab qadimiy masjidlar, madrasa va ziyoratgohlar joylashgan. Bu yerda Toshkentning ko'plab mashhur ulamolari, davlat arboblari va madaniyat namoyandalari istiqomat qilgan. Mustaqillik davrida va ayniqsa so'nggi yillardagi islohotlar natijasida Sag'bon ko'chasi butunlay yangicha ko'rinish oldi. Ko'cha kengaytirilib, zamonaviy infratuzilma barpo etildi. Hozirda bu ko'chada zamonaviy servis markazlari bilan birga an'anaviy o'zbek taomlari tayyorlanadigan mashhur oshxonalar ham ko'p. O'n yilcha oldin O'zbekiston Milliy universitetida magistraturada o'qib yurgan kezlirim bu ko'chadan ko'p qatnaganman va ayrim hududlar, yo'llar ta'miralab ahvolda ekani esimda. Hozir esa derazamning shundoqqina ro'parasida keng bog', ko'klamda bu yashillikka qarab ko'zing quvnaidi.

Aslida yurtimizning har bir ko'chasi qadim qadriyatlarga, tarixiy ildizlarga ega. **O'zbekiston deb ataluvchi hududni umumjahon sivilizatsiyasidan ayrim holda tasavvur etib bo'lmaydi.** Bu yerdan sharq bilan g'arbni, janub bilan shimolni bog'lab turuvchi 12 000 kilometrlik Buyuk Ipak yo'li o'tgan.

O'zbekiston xalqi o'z tarixida bir necha bor madaniy yuksalish bosqichini, Uyg'onish davrlarini kechirgan. IX–XII asrlarda Birinchi Renessans, XIV–XVI asrlarda esa Ikkinchi Renessans ro'y berdi. **Yurtboshimiz ta'kidlaganidek, bu davrlarda tariximiz, madaniyatimiz, ma'naviyatimiz va ma'rifatimizni, adolat va qonunchilikni hamda jahon sivilizatsiyasini rivojlantirishga bebaho hissa qo'shgan, ilm-u urfon, qonunchilik, yuksak madaniyat sohasida ta'limot va g'oyalar yaratgan buyuk daholar, olim-u ulamolari, siyosatchilar, davlat arboblari, sarkardalar yetishib chiqdi.** Biz bugun dunyoda yuz berayotgan g'oyaviy-mafkuraviy sohadagi raqobatga tayyormizmi? Agar biz bu yorug' dunyoda "o'zbek", "o'zbekistonlik", "O'zbekiston" degan nomlar bilan yashab qolishni istaydigan bo'lsak, bu savollarga bugun javob topishimiz va ularni hal etish bo'yicha amaliy harakatlarni aynan bugun boshlashimiz shart.

BEFARQ KISHILAR KIM?

Mamlakatimiz yangi taraqqiyot davriga qadam qo'ygan bugungi kunda xalqimiz, ayniqsa farzandlarimiz ongida Vatanga muhabbat, yurtimiz

kelajagiga daxldorlik, tinch, erkin va farovon hayot qadriga yetish tuyg'usini kuchaytirish lozim.

– Oldimizda Vatan taqdiri turibdi. Ba'zilar "Bugun bizga kim ham hujum qilar edi, tahdid qani?" deyishi mumkin. Bu savolni berganlar aslida yo uzoq tariximizni bilmaydiganlar yo bilib turib, undan xulosa chiqara olmaydiganlar, yoxud Vatan taqdiriga befarq kishilar, – deydi Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi huzuridagi Ijtimoiy-ma'naviy tadqiqotlar instituti bo'lim boshlig'i, falsafa fanlari doktori Kamoliddin To'rayev. – Vatanni sevish hissi biz uchun eng tabarruk tuyg'udir. Otabobolarimiz, ajdodlarimiz ming yillar davomida yashab kelgan ushbu makon, ro'yi zamin har doim go'zal tabiati, moddiy-ma'naviy boyliklari, mehnatkash xalqi bilan butun dunyoni o'ziga rom etib kelgan. Shuning uchun bu zaminga egalik qilish barcha yaqin va uzoq qo'shnilarimizning orzusi bo'lgan. **Vatanparvarlik – buyuk tuyg'u. Vatan jonsiz, ruhsiz buyum emas. Biz bor ekanmiz, har birimizning qonimizda, jonimizda, ruhiyatimizda vatanparvarlik degan vijdan suvi oqadi.** Vatanni unutgan har bir inson armonida yoki sahrocho'llarda adashgan, shamchirog'ini yo'qotgan kishi kabi bir umr mehrga, muhabbatga zor, o'zi mansub xalqqa muhtoj bo'lib yashaydi. U jismoniy jihatdan tirik, ammo ma'nan bir umr afsus-nadomat chekadi.

"INSON QADRI UCHUN" – ISLOHOTLARNING BOSH MEZONI

Har bir millatning hayotida uning taqdirini tubdan o'zgartirgan, milliy o'zligini anglatgan va kelajak poydevorini qo'ygan muqaddas sanalar bo'ladi. O'zbekiston uchun – bu 1991-yil 1-sentabr. Mustaqillikning 35 yillik sanasi shunchaki taqvimdagi bayram emas, balki xalqimizning o'z taraqqiyot yo'lini

mustaqil belgilash, milliy manfaatlar ustuvorligini ta'minlash va jahon hamjamiyatida munosib o'rin egallash yo'lidagi ulkan g'alabasi ramzidir. **Yangi O'zbekistonning bugungi qiyofasi o'tgan 35 yillik sinovlar, izlanishlar va so'nggi o'n yillikdagi jadal islohotlarning mahsulidir.** Vatanimiz mustaqilligining 35 yilligi davomida O'zbekiston agrar-xomashyo o'lkasidan zamonaviy sanoat va yuqori texnologiyalar markaziga aylandi. Valyuta bozorining ochilishi, tashqi savdodagi to'siqlarning olib tashlanishi va xususiyashtirish jarayonlari iqtisodiyotga xorijiy investitsiyalarning misli ko'rilmagan darajada kirib kelishiga sabab bo'ldi.

Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasining asosiy ustuni davlatning inson uchun xizmat qilish tamoyilidir. 35 yillik dovonning eng muhim yutug'i shundaki, mamlakatda "Davlat – jamiyat – inson" zanjiri o'miga "Inson – jamiyat – davlat" tamoyili hayotga tatbiq etildi. **Yangilangan Konstitutsiya mustaqillikning huquqiy kafolati sifatida inson huquq va erkinliklarini mutlaq ustuvor deb belgiladi.** Kambag'allikni qisqartirish milliy siyosat darajasiga ko'tarildi. "Mahallabay" ishlash tizimi dunyo hamjamiyati tomonidan o'ziga xos ijtimoiy innovatsiya sifatida tan olindi.

Bugun O'zbekiston nafaqat paxta, balki avtomobillar, murakkab maishiy texnika, to'qimachilik mahsulotlari va IT-xizmatlari eksport qiluvchi davlatga aylandi. Raqamli iqtisodiyot va moliyaviy texnologiyalar sohalari taraqqiyot drayverlariga aylandi.

TARAQQIYOT TUZUGI – BIRDAMLIK MISSIYASI

"Mustaqillik" tushunchasi zamirida jamiyatdagi totuvlik yotadi. O'zbekistonda yashayotgan 130 dan ortiq millat va elat vakillarining bir tan-u bir jon bo'lib, yagona O'zbekiston xalqi sifatida birlashishi



mustaqillikning eng katta boyligidir. Ushbu birdamlik, ayniqsa og'ir sinovlar davrida (*pandemiya*) yaqqol namoyon bo'ldi. **"Xalq davlat idoralariga emas, davlat idoralari xalqimizga xizmat qilishi kerak"** degan g'oya atrofida jamiyatning barcha qatlamlari jipslashdi. Bu birdamlik Yangi O'zbekistonni qurishdagi eng asosiy ma'naviy kuchdir.

Yangi O'zbekiston poydevorini qurishda biz asrlar sinovidan o'tgan milliy davlatchilik an'analarimizga ham tayanamiz. Bu borada sohibqiron Amir Temurning "Temur tuzuklari" asari bugungi islohotlarimiz uchun o'ziga xos ma'naviy-huquqiy dasturilamal bo'lib xizmat qilmoqda. Sohibqiron Amir Temur davlatni "kengash va mashvarat" (*hozirgi demokratiya va muloqot*) asosida boshqarganidek, bugun Yangi O'zbekistonda xalq bilan muloqot tizimi davlat siyosatining o'zagiga aylandi. **Bugungi "umummilliy birdamlik" g'oyasi Temur bobomizning mamlakatni birlashtirish missiyasining davomidir, desak, mubolag'a bo'lmaydi.**

O'zbekiston mustaqilligining 35 yillik tarixi, ayniqsa so'nggi yillardagi tub islohotlar millat taraqqiyoti va xalqaro maydondagi nufuzi bilan chambarchas bog'liq. 35 yillik yo'l davomida O'zbekiston jahon diplomatiyasida o'zining muvozanatli va konstruktiv ovozigaga ega bo'ldi. Qo'shni davlatlar bilan chegaralarning ochilishi, suv va transport masalalaridagi yechimlar mintaqada mutlaqo yangi siyosiy muhitni yaratdi. BMT, ShHT, Turkiy davlatlar tashkiloti doirasida ilgari surilgan global tashabbuslar O'zbekistonning xalqaro darajadagi nufuzini yangi bosqichga ko'tardi.

Joriy yilgi Mustaqillik ayyomi Uchinchi Renessans poydevorini qo'yayotgan yosh avlodning ham bayramidir. Kelajagimiz bunyodkorlari yoshlarga oid davlat siyosati samaralarini o'z hayotida his etayotgani hech kimga sir emas. Shu tariqa istiqloldek tabarruk ne'mat nafaqat o'z taqdirimizni o'zimiz hal qilish imkonini berdi, balki bizni umummilliy taraqqiyot va birdamlik atrofida birlashtirdi.

Yangi O'zbekiston – erkinlik, adolat va farovonlik tantana qiladigan mamlakat. Zero milliy mustaqillik tushunchasi bugun har bir yurtdoshimizning hayotida, oilasining tinchligi va farovonligida, farzandlarining porloq kelajagida o'z aksini topmoqda.

Kapitan Dilshod RO'ZIQULOV,
"Vatanparvar"



Sadoqat va jangovar ruh

“AMIR TEMUR JANGOVAR BAYROG‘I” — YAKDIL KUCH VA MATONAT

Amir Temur nomi filga olinganda, ko‘z oldimizda nafaqat buyuk sarkarda va davlat arbobi, balki ulkan ma‘naviy kuch, yengilmas iroda timsoli gavdalanadi. Tarix zarvaraqlarini varaqlar ekanmiz, bobokalonimizning har bir yurishi, har bir jangi puxta o‘ylangan strategiya va mustahkam ishonch asosida amalga oshirilganini ko‘rishimiz mumkin. Ana shu qudrat va g‘alaba ramzlaridan biri sohibqironning jangovar bayrog‘idir.

Tarixda Amir Temur qo‘shinlari qurol-yarog‘ bilangina emas, balki yuksak ruh, qat‘iyat va yagona maqsad yo‘lida birlashgan kuch sifatida tasvirlanadi. **Jangovar bayroq esa ana shu birlik va g‘oyaning yorqin ifodasi bo‘lib xizmat qilgan. U oddiy mato emas, balki qo‘shinning ruhi, g‘alabaga bo‘lgan ishonchi bo‘lgan.**

Manbalarga ko‘ra, Amir Temur lashkarining bayrog‘i o‘ziga xos ramziy ma‘noga ega bo‘lgan. Xususan, Temuriylar bayrog‘ida aks etgan uch halqali belgi, “tamg‘a” alohida e‘tiborga molikdir. Bu uch doira ba‘zi tarixchilarga ko‘ra, yer, osmon va inson uyg‘unligini, boshqa manbalarga ko‘ra esa sohibqiron hukmronligi ostidagi keng hududlar birligini ifodalagan. Shuningdek, bayroq ranglari ham tasodifiy tanlanmagan bo‘lib, unda kuch-qudrat, jasorat va g‘alabaga ishonch ifodalangan.

Jang maydonlarida bayroqning o‘rni beqiyos bo‘lgan. Sohibqiron qo‘shinlarida bayroqdorlar alohida saralab olingan bo‘lib, ulardan jismoniy baquvvatlik bilan birga yuksak matonat, sadoqat va jasorat talab etilgan. Bayroqning yiqilishi esa qo‘shin ruhiyatiga qattiq ta‘sir qilib, deyarli mag‘lubiyat bilan teng hisoblangan. **Shu bois jang paytida bayroqni asradda, uni baland tutish har bir askarning muqaddas burchi hisoblangan.**

Tarixiy manbalar va rivoyatlarda qayd etilishicha, Amir Temur yurishlari davomida jangovar bayroq doimo lashkar markazida yoki eng muhim strategik nuqtalarda hilpirab turgan. **Bu esa askarlar uchun nafaqat yo‘nalish belgisi, balki birlashuv, jipslashuv va ruhiy tayanch vazifasini o‘tagan.** Bayroq atrofida jamlangan qo‘shin hech qachon parokanda bo‘lmagan, aksincha yanada kuchli birlikka erishib, dushmanga qarshi bir tan-u bir jon bo‘lib kurashgan.

Bugungi kunda **Amir Temur jangovar bayrog‘i nafaqat tarixiy yodgorlik, balki milliy g‘urur, jasorat va vatanparvarlik timsoli sifatida qadrlanadi.** U ajdodlarimizning buyuk g‘alabalari, mardlik va fidoyilik ruhini o‘zida mujassam etgan bebaho meros sifatida yosh avlodni yurtga sadoqat, matonat va birlik ruhida tarbiyalashda muhim ma‘naviy manba bo‘lib xizmat qilmoqda.

Ana shu ulug‘ an‘analarning mantiqiy davomi sifatida, bugun ushbu boy tarixiy merosga yuksak ehtirom ko‘rsatilib, uni zamonaviy harbiy tizim bilan uyg‘unlashtirishga alohida e‘tibor qaratilmoqda. Xususan, **O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti, Qurolli Kuchlar Oliy Bosh Qo‘mondoni Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan milliy armiyamizda “Amir Temur jangovar bayrog‘i” mukofoti ta‘sis etilgani bu boradagi e‘tiborning yorqin ifodasi bo‘ldi.**

Darhaqiqat, Prezident qarori asosida O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi qo‘shinlari va bo‘linmalari o‘rtasida “Amir Temur jangovar bayrog‘i” uchun musobaqasi izchil ravishda, yuksak shijoat va jangovar ruhda tashkil etib kelinmoqda. Ushbu musobaqa bir nechta bosqichlarda o‘tkazilib, dastlab harbiy qism va bo‘linmalar o‘rtasida, so‘ng harbiy okrug miqyosida eng munosib jamoalar saralab olinadi. Ikki bosqichda g‘oliblikni qo‘lga kiritgan jamoalar esa yakunda Mudofaa vazirligi miqyosida oliy o‘rin uchun bellashadi.

Oxirgi bosqichda g‘olib deb topilgan harbiy okrugga ushbu sharafli bayroq – O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti, Qurolli Kuchlar Oliy Bosh

Qo‘mondoni tomonidan har yili 14-yanvar – Vatan himoyachilari kuni bayrami arafasida tantanali ravishda topshirilishi belgilangan.

Albatta, “Amir Temur jangovar bayrog‘i” mukofoti ta‘sis etilgandan so‘ng ushbu sharafli bayroqni qo‘lga kiritish uchun Qurolli Kuchlar tizimidagi barcha harbiy okruglar, qism va bo‘linmalar o‘rtasida sog‘lom raqobat muhiti yanada kuchaydi. Har bir jamoa o‘zining jangovar tayyorgarligi, xizmat intizomi, ma‘naviy-ruhiy holati va jamoaviy jipsligini yanada yuksaltirishga intilmoqda.

Bu esa, o‘z navbatida, harbiy xizmatchilarning kasbiy mahoratini oshirish, ularni murakkab vaziyatlarda tez va to‘g‘ri qaror qabul qilishga o‘rgatish, Vatan himoyasi yo‘lidagi mas‘uliyat hissini yanada mustahkamlashga xizmat qilmoqda.

Ushbu mukofotni qo‘lga kiritish uchun o‘tkazilgan tanlovda ilk bor Markaziy harbiy okrug qo‘mondonligi g‘olib deb topildi. 2023-yilning 13-yanvar kuni Qurolli Kuchlarimiz tashkil etilganining 31 yilligi hamda Vatan himoyachilari kuni munosabati bilan o‘tkazilgan bayram tadbirida “Amir Temur jangovar bayrog‘i” uchun tanlovda g‘oliblikni qo‘lga kiritgan Markaziy harbiy okrugga “Amir Temur jangovar bayrog‘i” tantanali ravishda topshirildi.

Ushbu e‘tirof Markaziy harbiy okrugning erishgan yutuqlarini munosib e‘tirof etish barobarida barcha harbiy tuzilmalar uchun o‘ziga xos namuna manbai bo‘ldi. Buning natijasida keyingi yillarda “Amir Temur jangovar bayrog‘i”ni qo‘lga kiritish uchun Qurolli Kuchlar tizimidagi barcha okruglar orasida sof raqobat paydo bo‘ldi. Har bir jamoa o‘z jangovar tayyorgarligi, xizmat samaradorligi va ma‘naviy-ruhiy salohiyatini yuqori bosqichga ko‘tarishga intildi.

Oradan ikki yil o‘tgach, Qurolli Kuchlar tashkil etilganining 33 yilligi va Vatan himoyachilari kuni munosabati bilan o‘tkazilgan bayram tadbirida tanlovning bu galgi g‘olibi – Janubi-g‘arbiy maxsus

harbiy okrugga “Amir Temur jangovar bayrog‘i” tantanali ravishda topshirildi.

Ushbu e‘tirof nafaqat yuqori natijalarga erishgan Janubi-g‘arbiy maxsus harbiy okrugning mehnati va sadoqatini e‘tirof etish, balki barcha harbiy xizmatchilar uchun jangovar ruhning yuksak namunasi bo‘ldi. **Bayroqni qabul qilish paytida har bir sarbozning yuragida g‘urur va vatanparvarlik hissi uyg‘ondi, ularning irodasi va sadoqati yanada mustahkamlandi.** Har bir jamoa a‘zosi o‘z xizmat vazifalarini yanada mas‘uliyatli va professional ravishda bajarishga intildi, jangovar tayyorgarlik va ma‘naviy salohiyatni doimiy ravishda yuksaltirish zaruratini chuqur his qildi.

“Amir Temur jangovar bayrog‘i” uchun o‘tkaziladigan ushbu tanlov nafaqat harbiy okruglar orasidagi sof raqobatni kuchaytiradi, balki milliy armiyamiz uchun ham strategik ahamiyatga ega. Bu musobaqa har bir sarbozni o‘z ustunligini namoyon etishga, yangi marralarni zabt etishga va harbiy xizmatga sadoqatli bo‘lishga undaydi. **Shu tariqa tanlov nafaqat jangovar salohiyatni oshirish, balki harbiy jamoalar o‘rtasida birdamlik va hamjihatlikni mustahkamlash vositasi bo‘lib xizmat qilmoqda.**

Bundan tashqari, ushbu bayroq va unga bo‘lgan intilish milliy armiyamizda har bir xizmatchining ma‘naviy-ruhiy o‘sishi, barqarorligi va fidoyilik hissini yanada kuchaytirishda muhim rol o‘ynaydi. **U nafaqat tarixiy an‘anani asrab-avaylash ramzi, balki harbiy xizmatchilarni sadoqat, matonat va birlik ruhida tarbiyalashda muhim omildir.**

Umuman olganda, bu kabi tanlovlar va e‘tiroflar nafaqat tarixiy an‘analarni asrab-avaylash, balki milliy xavfsizlikni mustahkamlash, barqarorlikni ta‘minlash va harbiy xizmatda yuksak standartlarni belgilashda asosiy ahamiyatga ega. Ushbu jarayonlar **har bir jamoa va harbiy xizmatchining yuragida g‘urur va vatanparvarlik hissini uyg‘otib, milliy armiyamizdagi birdamlik, sadoqat va jangovar ruhni yanada mustahkamlaydi.**

Leytenant Mansurbek JABBOROV,
“Vatanparvar”



Sohibqiron tavalludining 690 yilligi

AMIR TEMUR G'ORI

Yakkabog' viloyatining ko'hna va afsonaviy maskanlaridan birida bo'lib o'tgan hodisa yonida to'xtaymiz. U Yakkabog' hanuz bag'rida asrab kelayotgan va qadim tarixchilar yozib qoldirgan eng keksa hikoyadir. Unda qadimgi Sug'd hukmdorlaridan Oksiart va jahonga mashhur Iskandar Zulqarnayn jangchilari to'qnashuvi tasvirlangan. Uni qadimgi yunon muarrixlari "Sug'd qal'asi" nomi bilan ataydi. Yunon muarrixlari ushbu qal'a baland tog' tepasida joylashgani uchun unga nisbatan "Sug'd qoyasi" iborasini qo'llaydi. U XX asr o'rtalariga qadar "Sherlar qal'asi" deb atalgan. Bugungi kunda "Amir Temur g'ori" nomi bilan mashhurdir.

SUG'D QOYASI

(miloddan avvalgi 327-yil)

Arrian yozadi: Qish sovuq'i hali kuchli bo'lganidan Iskandar qo'shinga Nautakada dam olishga ruxsat berdi... Ko'klam kelishi bilan sug'dlar ko'p odam to'pladi, degan xabarni eshitgani uchun "Sug'd qal'asi" deb ataluvchi qoyaga yetib keldi. Bu qoyaga baqtiriyalik Oksiart xotini va qizlarini yashirib, o'zicha bu joyni olib bo'lmas deb o'ylab, keyin Iskandardan yuz o'girib ajralgandi. Bu qoya qal'a olinsa, Sug'dda bundan keyin yana isyon ko'targudek bo'lsalar, boshqa qochadigan joylari qolmaydi, degan qarorga kelindi. Iskandar qoyaga yaqinlashganda gir-atrof tikligidan to'g'ridan to'g'ri hujum qilish foydasizligini ko'rdi. Yog'iy uzoq qamalga hozirlanib, oziq-ovqatini g'amlagandi. Qalin qor maqduzilarning ishini juda qiyinlashtirar, dushmanning ichadigan suvini serob qilardi. Shunga qaramay, Iskandar qoyani olmoqqa qaror qildi.

Taslim bo'lish haqidagi taklifga ular mazax bilan javob berdilar: "Iskandar avval bu yoqqa chiqa oladigan qanotli jangchilar topsin. Oddiy bandalardan biz qo'rqmaymiz!"

Avvaldan bunday ishlar bilan shug'ullangan, qoyaga chiqish hunarini egallagan uch yuzga yaqin kishi topildi. Ular o'zlariga lozim bo'lgan mixlarini tayyorladi. Mixlarga zig'irpoya tolasining pishiq arqonlarini bog'lab, qoya devorlari tik va shu sababdan eng kam qo'riqlanadigan yeriga keldi. So'ngra mixlarni qordan xoli bo'lgan yoki qor qattiq muzlagan joylarga qoqib, bir-birlariga zina bo'lib, yordam berib, har yerdan ko'tarila boshladi. Tong otganda qoyaga ko'tarilib, tog'ning cho'qqisini egalladi. So'ng Iskandarning buyrug'iga binoan, maqduzililar qarorgohiga qarab, zig'irpoya tolasidan to'qilgan ro'mollarini silkita boshladi. Iskandar sug'dlarning oldinda turgan soqchilariga elchi jo'natib, vaqtni cho'zmasdan taslim bo'lishni, qanotli jangchilar topilib, tog' cho'qqisini qo'lga kiritganini aytishni va cho'qqi tomon ishora qilishni buyurdi. Qamaldagilar cho'qqini ko'rdilar va qo'rqib ketib, taslim bo'ldi.

Asirga olingan juda ko'p ayollar va bolalar orasida Oksiartning xotini, farzandlari hamda Roksana ismli qizi ham bor edi. Iskandar unga ishqiy tushib, ehtiros alangasi har lahzada kuchayib borayotgan bo'lsa-da, qiz asirasini hurmat-izzatda saqladi va oxir-oqibat unga uylandi.

TANDIRDA YAKUN TOPGAN TARIX

(783-yil)

Hirot amiri Said ko'p lashkar bilan Muqanna hisorining darvozasiga kelib qo'ndi. Uylar va hammomlar qurib, yozin-qishin shu yerda bo'ldi.

Hisorning ichida chashma, daraxtlar va ekinzorlar bor edi. Muqannaning xos kishilari va sipohsolorlar kuchli lashkar bilan hisor ichida edi. Hisor ichkarisida tog' tepasida yana boshqa bir

hisor bo'lib, u hisorga hech kimga yo'l yo'q edi. Muqanna o'sha xotinlar bilan shu hisorda turardi. Har kuni xotinlari bilan ovqatlanib, mayxo'rlik qilish odati edi. U o'n to'rt yil shu tarzda hayot kechirdi.

Hirot amiri uning ishini og'irlashtirib, lashkari tarqalib ketdi. Qal'adagi sipohsolor hisor darvozasini ochdi. Bo'ysunib tashqariga chiqdi va islomni qabul qildi. Musulmonlar hisorni oldi. Muqanna ichki hisorni saqlab qola olmasligini bildi.

Muhammad ibn Ja'farning Kesh dehqonlaridan Abu Ali Muhammad ibn Horundan rivoyat qilishicha, u shunday degan: "Buvim Muqannaning o'zi uchun olib kelib, hisorda saqlab turgan xotinlari jumlasidan bo'lgan ekan. U shunday hikoya qilar edi: "Bir kuni Muqanna xotinlarni odati bo'yicha ovqat yeyish va sharob ichishga o'tirg'izib, sharob ichiga zahar soldi-da, har bir xotin uchun bittadan xos qadah tutqizib aytdi: "Men qadahimdagi sharobni ichganimda sizlar ham qadahlargizni butunlay bo'shatishingiz lozim". Hamma xotinlar ichdi, men ichmasdan sharobni kuylagim yoqasidan to'kdim. Muqanna buni payqamadi. Hamma xotinlar yiqilib o'ldi. Men ham o'zimni ularning orasiga tashlab o'lganga solib yotdim. Muqanna holimdan bexabar edi. U o'rnidan turib qarab, hamma xotinlarning o'lib yotganini ko'rdi-da, qulining oldiga bordi va qilich bilan uning kallasini uzdi. Muqannaning farmoni bilan uch kundan beri tandir qizitilayotgan

edi. Muqanna o'sha tandir oldiga borib kiyimini yechdi va o'zini tandirga otdi. Tandirdan bir tutun chiqdi. Tandır oldiga borib, uning vujudidan hech asar ko'rmadim. Hisorda biror tirik jon yo'q edi".

Uning o'zini kuydirishi sababi u hamisha:

"Qachon bandalarim menga bo'ysunmasalar, men osmonga chiqib, u yerdan farishtalarni olib kelaman va ularni bo'ysundiraman", der edi. Xalq: "Muqanna farishtalarni olib kelib bizga yordam berish uchun osmonga chiqib ketdi. Uning dini dunyoda qoladi", deyishlarini istab, Muqanna o'zini kuydirdi.

Keyin u xotin hisor darvozasini ochdi va Said Harashiy kirib, u yerdagi xazinani oldi".

SHERLAR QAL'ASIGA YASHIRINGAN ARSLON

(1871-yil)

Ular to'rani shu tariqa qo'riqlab, Qorabog'gacha omon-eson yetib olishdi. Qarshining ta'qib qilayotgan bahodirlari Qorabog'dan qaytib ketishdi. To'ra tunni Qorabog'da o'tkazdi.

Shu paytda Shahrisabz va Kitob hokimi Bobobek dodxoh va Jo'rabek dodxohdan to'raga maktub keldi. **U quyidagi mazmunda edi:** "Tangri taolo irodasi va taqdir hukmiga ko'ra, voqea shu tariqa sodir bo'ldi. Yaratganga e'tiroz bildirib bo'lmaydi. Ish nazoratdan chiqdi va muvozanat buzildi. Nosorlarning qudratli davlati ishga aralashdi. Endi gubernator Buxoro davlatiga homiylik qilishdan to'xtamaydi. Janobi



HIKOYALARI

oliylari kenagaslarga nisbatan eski xusumatini unutmaydi va ularning yana bosh ko'tarishiga yo'l qo'ymaydi. Nima bo'lganda ham, oliy hukmdorning ular bilan do'stona munosabatlariga e'tibor bermay, mamlakat xavfsizligini ta'minlash, sha'nimiz va g'ururimizni asrashimiz zarur. Shahrisabzga tashrif buyurib, yurtimizga falokat eshigini ochmassiz, degan umiddamiz. Qismat mavhumliklar orasidan biror yo'l topib bergunicha tog'larda istiqomat qilib turganingiz ma'qulroqdir".

Shahrisabz hokimlarining bu yoqimsiz gaplari to'raning qulog'iga yetib, ularning himoyasidan umidini uzdi va Toshqo'rg'on tarafga yo'l olishga majbur bo'ldi. U jangchilarning qolgan-qutgani bilan Tangri taolo tomonidan yaratilgan ushbu tabiiy mustahkam qo'rg'onga kelib joylashdi.

Jangchilarining ko'pchiligini tarqatib yubordi va taqdir hukmiga topshirdi. To'raning ijozati bilan isyonning rahbari Xudoyor eshikog'aboshi Samarqandga yo'l oldi va o'sha joydagi mang'itlar orasidan panoh topdi...

Toshqo'rg'onda to'ra bilan to'rt yuztacha odam qoldi.

Abdumalik to'ra bu manzilda qisqa muddat turadi va iziga qaytib, kurashni davom ettirishga urinadi.

YAKKABOG' HOKIMI SAYOHATI (1893-1898-yillar)

1893-yili Yakkabog' viloyatiga hokim bo'lib kelgan Mirza Salimbek "Tarixi Salimiy" asarida "Sherlar qal'asi" haqida quyidagilarni yozadi:

"Tog' manzaralarini tomosha qilish, ajoyibotlarini ko'rish uchun Toshqo'rg'onga ikki marta bordim. U yerda g'aroyib "Sherlar qal'asi" haqida eshitdim. Juda ko'rgim keldi. Shu yerlik ishonchli kishilardan olib, "Sherlar qal'asi" sari yo'lga tushdik. Yigirma uch kishi hamroh bo'ldi. Kechasi yo'lda tunadik. Ayni saraton bo'lishiga qaramay, qorong'i tushishi bilan chodirda olov yoqib, atrofida o'tirdik. Isinish uchun tinmay qimirlardik. Havo sovuqligidan tananing olov tafti yetmagan qismi yaxlab qolayotgandi.

Tong yorishishi bilan qo'zg'aldik va peshinga yaqin "Sherlar qal'asi"ga yetdik. Ikki yuksak cho'qqili tog' etagida yigirma tanobcha yalanglikka ko'zim tushdi. Mazkur ikki tog' orasidan bir daryocha tez va shiddat bilan oqardi. Yakkabog'daryo shundan boshlanadi. Bu yerda gurkurab o'sib yotgan o'rik, gilos, olma, olcha kabi yovvoyi mevali daraxtlarning adog'i ko'rinmaydi. Tog'ning bir tarafidagi daraxtlar endigina gullagan, boshqa yoqdagilari g'o'ra tuggan, yesa bo'ladi. Qarama-qarshi turgan bu ikki tog' qoyalari birov mahorat bilan sayqal berganday yaltirardi.

O'ng tomondagi tog'ning o'rtasida to'rtta g'o'lardan yasalgan darvoza bor. Ustiga burj o'rnatilgan. G'o'lalardan biri qulagan, uchtasi o'rnida turibdi. Darvoza burji yerdan o'ttiz-qirq gaz baland va tog' cho'qqisidan qirq-ellik gaz quyida joylashgan. Pastdan kuzatib, bu qanday imorat ekani, kim qurgani, unga qanday kirish mumkinligi haqida qancha o'ylamaylik, sira aqlimiz yetmadi. Oramizda toshqo'rg'onlik ko'p kitob o'qigan ikki-uch kishi bor edi. Ular ham bu inshootning qachondan buyon mavjudligini bilishmadi. Tog' qal'asining chap tarafida ancha yuksaklikdan tushayotgan sharshara tog'ning yana bir mo'jizasi edi. Tarvuzdan kattaroq yoriqdan kuchli oqim bilan chiqqan suv yoyilib-yoyilib pastga tushar, yerga tushguncha mushtdek pufak hosil bo'lardi. Pufaklar keyingi

oqimda tovuq tuxumidek kichrayar, yerga tushgach, toshloqqa singib, yo'q bo'lib ketardi. Unga yaqinroq borib, manzarani miriqib tomosha qildik, tushayotgan mayda tomchilar shudringga o'xshardi. Ancha suv pastga tushib, daryoga qo'shilib ketardi.

Bu joydan o'tgach, ko'z oldimizda sanog'iga yetib bo'lmaydigan daraxtlardan iborat yovvoyi chorbog' va kattagina irmoq paydo bo'ldi. Shu joyda otlardan tushdik va ovqat tayyorlashga kirishdi.

Tushlik va dam olishdan keyin qariyb yigirma kishi "Sherlar qal'asi"ni tomosha qila boshladik. Ellik-yuz qadamcha ko'tarildik. Bu yerda katta darvozaning qoldiqlari yotardi. Undan ichkariga kirdik. Yuz qadamcha oraliqda yuqorisi yopilgan, otxonaga o'xshagan imorat turardi. U tog'ning ichkarisiga qarab o'yib yasalgan. Imoratning kesimi o'ttiz gaz chiqadi. Devorning ikki tomoniga tarashlangan tosh qalab chiqilgan. Imoratning tepasi otliq qo'lida qilichini ko'tarib yurganda ham shipga yetmaydigan darajada baland edi.

Binoni tomosha qilib, boshqa eshikdan chiqib qoldik va qarshimizda shaharlarda bo'ladigan katta darvoza turardi. Tabaqalarning o'rni bilinib turgan bo'lsa-da, o'zi joyida yo'q edi. Darvozadan kirdik va o'ng tomonda toshdan taxlangan zinaga duch keldik. Kimnidir ko'tarilib, qarashga taklif qildik. Yuqorida taxt va toshdan qilingan bir necha keng supalar bor ekan.

Ehtiyotan o'zim bilan ikki-uch fonus, uch-to'rt temir mash'ala, ikki kosa zig'ir yog' va ikki-uch qadoq sham olib kelgandim.

Shu yerdan ichkariga yo'l oldik. Shipning balandligi otxona darajasida. Binoning yuqori kesimi taxminan yigirma gazga teng. Yuqori yopiq. Uning tomi va aylanasi baland tog'lar, albatta. Devorining ichki qismi islmiy naqshlar va qabariq tasvirlar bilan bezatilgan. Ikkala devorda ham o'yilgan katta-kichik tokchalar bor. Tokchalarning ko'p qismi tosh panjaralar bilan o'ralgan. Har-har joyda toshdan yasalgan katta shamdonlar turardi. Ikki-uch joyda yorg'ichoqlar yotardi. Pastda yashayotganlar va cho'ponlar olib keta olmagan yorg'ichoqlar sindirilgan.

Mash'alani yoqib, o'zimiz bilan non, go'sht, suv va boshqa yeguliklarni olib, ikki yuz qadamcha yurdik va gumbazi Buxoro zargarlik ustaxonalariga o'xshab ketadigan, yo'laklari bor keng joyga chiqib qoldik. O'rtada yoqutdek tovlanuvchi katta oq marmar ustun osilib turar, odamlar uning ba'zi qismlarini sindirib olgandilar".

* * *

Yakkabog' viloyatining ushbu eng qadimiy va mashhur tarixiy maskani mustaqillik davrida "Amir Temur g'ori" nomi bilan shuhrat qozondi. Biroq qadimiy birlamchi manbalarda sohibqiron Amir Temur hayotini u bilan bog'lovchi biror ma'lumot uchramaydi. XX asr o'rtalarigacha mahalliy aholi bu joyni "Sherlar qal'asi" ("Qal'ayi sheron") nomi bilan atagan. Ilk bor 1913-yili g'orchi I. Kastanye uni ilmiy tadqiq etadi. 1955-yili qadimchi (arxeolog) K. Kabanov uni o'rganadi. Mazkur tadqiqotchilar ishlarida u "Sherlar qal'asi" nomi bilan yuritiladi.

Mustaqillik davrida bu g'or mustaqil va havaskor g'orchilar, mahalliy tadqiqotchilar tomonidan bir necha marta o'rganildi. Matbuotda u to'g'rida maqolalar chop etildi, televideniya maxsus ko'rsatuvlar namoyish qilindi va radioda suhbatlar uyushtirildi. Bu joy hozir ham olimlar e'tiborini tortib, jamoatchilikda katta qiziqish uyg'otadi.

**Abdusattor JUMANAZAR,
O'zR FA Abu Rayhon Beruniy nomidagi
Sharqshunoslik instituti katta ilmiy xodimi**



Ekstremizm va terrorizm – jamiyat barqarorligiga qaratilgan xavf

DIN NIQOBIDAGI MAFKURAVIY TAHDIDLAR

Muayyan guruh, xalq, jamiyatni mafkuraviy ta'sir doirasiga tortishga urinishlar hamma vaqt bo'lgan. Tarixga nazar tashlasak, bu jarayon jamiyat rivojlana borishi bilan birga chuqurlashib borganini, yangi texnik va texnologik tizimlarning yuzaga kelishi natijasida g'oyaviy ta'sir o'tkazish imkoniyatlarining kengayishi, uslub va vositalarining takomillashuvi sodir bo'lganini ko'ramiz. Xususan, hozirgi davrda mafkuraviy ta'sir o'tkazish o'zining bir qator xususiyatlari bilan ajralib turadi.



Hozirgi kunda diniy ekstremizm mafkurasiga qarshi kurashdagi asosiy vazifa yoshlar bilan olib boriladigan targ'ibot-tashviqot va tarbiyaviy ishlarni izchil, chuqur o'ylangan tizim asosida tashkil etish va ularning ta'sirchanligini keskin kuchaytirishdir.

Keyingi yillarda hukumatimiz tomonidan fuqarolarimizga e'tiqod erkinligini ta'minlash masalasida barcha sharoitlar yaratib berildi. Biroq makkor va qo'poruvchi kuchlar, jumladan diniy mutaassib guruhlar dunyoda butunlay yo'q bo'lib ketmadi. Ular o'z qabih rejalarini amalga oshirish yo'lida, ayniqsa yoshlar ichida buzg'unchi g'oyalarni tarqatishga urinadi. Bu guruhlar buzg'unchi g'oyalarni yoyishda asosan, o'zlari da'vat deb atovchi, aslida esa aldash, qo'rqitishga qaratilgan yollash usulidan foydalanishmoqda. Amaliyot shuni ko'rsatmoqdaki, ekstremistlar yollash uchun asosan 20-25 yoshdagi yigit va qizlarni tanlaydi. Bunda o'smir yoshlarning xavfga yaqin guruhda ekanini alohida qayd etish lozim. Yoshlarning qandaydir mas'uliyatlari va hayotdagi orzu-maqсадlarga mustaqil erishish harakatlarining ataylab cheklanishi natijasida ularda infantillik (*o'zini nochor, yordamga muhtoj his qilish*) xususiyati shakllanadi.

Yoshlarda "oliy maqsadlar hayotda ro'yobga chiqmasada, ularni amalga oshirishga intilayotgan muayyan kishilar yoki jamoa mavjud", degan tasavvur paydo bo'la boshlaydi. Shunda ular o'z maqsad va intilishlariga yaqin kishilar (yoki guruh)ni izlashga tushadilar.

Jiddiy mas'uliyatdan ozod bo'lgan o'smirlarda shaxsiy tajriba yetishmaydi. Bunday yetishmovchilik soddalik va xayolparastlik bilan yonma-yon keladi. Atrofdan kuzatilayotgan adolatsizlik natijasida yuzaga keladigan zo'riqishni yo'qotishda faqat birgina yo'lni "buyuk g'oya"ni o'zida mujassamlashtirgan yetakchi bilan hammaslak bo'lishni tanlaydilar.

Bu yo'l o'smirni diniy mutaassib oqimlarga yetaklab keladi.

Da'vat asosan ikki maqsadga yo'naltirilgan bo'ladi:

1. Oddiy fuqarolar ichidagi da'vat tarafdorlar sonini oshirish va harakatni kengaytirish uchun olib boriladi. Bunday da'vatni ekstremistik guruhda 2-3 oy a'zo bo'lib kelayotgan shaxslar ham amalga oshirishlari mumkin.

2. Davlat tashkilotlari xodimlarini da'vat qilish kelajakda ushbu shaxslarning xizmat imkoniyatlaridan ekstremistik guruh manfaatlari yo'lida foydalanish uchun mo'ljallangan bo'ladi. Tabiiyki, ushbu holda yollash ishlarini ekstremistik guruhning eng tajribali a'zolari amalga oshiradi.

Har qanday diniy mutaassib oqim, "o'lja"sining hayotiy muhim ehtiyojlarini inobatga olgan holda o'z ta'limotini jozibador qilib ko'rsatishga harakat qiladi. Odamlarning bunday oqimlar ta'siriga tushib qolishi, shuningdek turli xil odatdagi axborot doirasidan tashqariga chiqadigan shov-shuvlarga ortiqcha e'tibor bilan ham belgilanadi. Bunday e'tiborni bugungi kunda keng tarqalayotgan g'ayritabiiy hodisa va jarayonlarning haqiqatan ham mavjudligi haqidagi axborotlar oziqlantirib turadi. Turli axborot manbalarining doimiy ta'sir ostida bo'lgan bir paytda inson g'ayriilmiy, soxta diniy g'oyalarni qabul qilishga moyil bo'lib qoladi.

Ko'pchilik mutaassib oqimlar yangi tarafdorlarni yollashda ruhiy ta'sirning quyidagi usullaridan faol foydalanadi va unga ortga qaytishga deyarli imkon qoldirmaydi:

"Oz-ozdan" texnologiyasi.

Yollanayotgan shaxsni kichik iltimoslar orqali jiddiy yonbosishga majbur qilish. Masalan, faqat birgalikda namozga borish, dam olish kunlarini birga o'tkazish, faqat bir hafta kechqurunlari birga diniy adabiyot o'qish, jamoaning yig'inlarida qatnashish, faqat bir marta "savob ish" qilish va h.k.

Doimiy "miya yuvish" texnologiyasi.

Yollanayotgan shaxsni mutaassib guruhning g'oyalari amalga oshirish uning shaxsiy va jamiyatdagi muammolarni hal etishning eng

maqbul yo'li degan g'oya tinmay uqtiriladi.

Guruhi ta'sir etish texnologiyasi.

Jamoaning barcha a'zolari yangi a'zoni turli tomondan yagona g'oyaga yo'naltirilgan fikrlar bilan "ko'mib" tashlaydi.

E'tiroz bildirish yoki bahslashish imkonini qoldirmaslik.

Yollanilayotgan shaxsni betinim yangidan yangi ma'lumotlar beriladi va o'z fikrlari bilan yolg'iz qolishiga yo'l qo'yilmaydi.

Ijoiy ta'sirni kuchaytirish.

Yollanilayotgan shaxsni nisbatan jamoa tomonidan faqat shirin so'zlar gapirilib, unga g'amxo'rlik ko'rsatiladi. Zarur hollarda unga moddiy yordam ham beriladi.

Diniy mutaassib guruh a'zolarini boshqalardan ajratib turishi mumkin bo'lgan jihatlarga quyidagilarni kiritish mumkin:

– oila a'zolari yoki jamoa tarkibiga kirmagan yaqin do'stlariga befarq ko'rish, jamiyat va jamoasi orasiga qat'iy chegara qo'yish;

– ko'pchilikka ma'lum bo'lgan diniy va siyosiy g'oyalarni ma'nosini buzgan holda ifodalash;

– guruh va harakat g'oyalari jamiyat va shaxs manfaatlaridan ustun qo'ygan holda "Maqsad vositani oqlaydi" shioriga amal qilish (*masalan: "qilichsiz islom bo'lmaydi" yoki "mavjud hokimiyatni o'zgartirmasdan haqiqiy jamiyatimizda islom dunyosi qurib bo'lmaydi" kabi fikrlar bildirish*);

– mavjud tuzumga nisbatan faqat salbiy fikr bildirish va unga nisbatan "biz-ular" qarama-qarshilik g'oyalari targ'ib qilish (*albatta, avvaliga bilvosita aytish bilan*);

– suhbatda guruh, yetakchilar va ustozlari haqidagi ma'lumotlarni

sir saqlagan holda o'z g'oyalari targ'ib qilish hamda yangi shaxslarni guruhga jalb qilishga intilish;

– suhbatdoshiga nisbatan guruh g'oyalari singdirishga qaratilgan ruhiy ta'sir usullarini qo'llashga intilish.

Xo'sh, jamiyatimizda bunday illatning paydo bo'lishi, ildiz otishi va tarqalishiga kim mas'ul? Yoshlarimizni diniy mutaassib oqimlar ta'siridan himoya qilishga kim javobgar? Farzandlarimizda bunday buzg'unchi oqimlarga qarshi immunitet shakllantirish uchun nimalarga e'tibor qaratishimiz zarur?

Bu boradagi ma'naviy-ma'rifiy va tarbiyaviy tadbirlarni amalga oshirishda eng muhim bo'g'in bu avvalo oila. Qolaversa, mahalla, o'qish yoki ish joyi. **Shu o'rinda pedagogika fanlari doktori, professor Muhammadjon Kuronovning "Ota-onalar bilan suhbat" maqolasida keltirilgan fikrlarni ta'kidlash o'rinli:** Oila ham maktab, litsey, kollej, institut-universitetlar, ya'ni pedagogik ishlab-chiqarish korxonalaridan biri. Oila tarbiyasining millat uchun foydasi ham, zarari ham beqiyos bo'ladi. Tasavvur qiling, kosib yomon tufli chiqarsa, u bir-ikki yil bir kishiga ma'naviy-moddiy zarar keltiradi. Tarbiyada xatoga yo'l qo'yilsa-chi? Bilimsiz, malakasiz yoki aksincha, bilimli, biroq o'z jig'ildoni yo'lida millat, davlat, vatandoshlari manfaatlarini ustidan bemalol bosib o'tuvchi navqiron, ammo nobakor yigitlar chiqib, jamiyat orasiga singib ketsa, nima bo'ladi?

Kiyim, sandiq, kompyuter sifatsiz bo'lsa, boshqasini olsa bo'ladi. Lekin inson tarbiyasiz bo'lsa, g'oyasi, niyati buzuq bo'lsa, buning ham, millatining ham, Vatanning ham sho'ridir.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganlaridek, "Biz O'zbekistonni rivojlangan mamlakatga aylantirishni maqsad qilib qo'ygan ekanimiz, bunga faqat jadal islohotlar, ilm-ma'rifat va innovatsiya bilan erisha olamiz. Buning uchun, avvalambor, tashabbuskor islohotchi bo'lib maydonga chiqadigan, strategik fikr yuritadigan, bilimli va malakali yangi avlod kadrlarini tarbiyalashimiz zarur".

O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi ilmiy tadqiqotlar va innovatsion loyihalar markazi



Harbiy ta'lim

Quruqlikdagi qo'shinlar institutida barpo etilgan zamonaviy raqamli poligon majmuasi harbiy ta'lim jarayonida yangi bosqichni boshlab berdi. Ushbu majmua kursantlarning taktik fikrlashini rivojlantirish, jangovar vaziyatlarda tezkor qaror qabul qilish hamda bo'linmalarni boshqarish ko'nikmalarini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

RAQAMLI POLIGON — ZAMONAVIY TAYYORGARLIK MAYDONI



Raqamli poligon ichki maydoni real jangovar hududni eslatadigan tarzda barpo etilgan. Unda turli himoya inshootlari, texnik vositalar, harbiy texnika maketlari hamda sun'iy to'siqlar joylashtirilgan. Bu esa kursantlarga haqiqiy jangovar vaziyatga yaqin sharoitda mashg'ulot o'tkazish imkonini beradi.

Majmuada "Lazertag", virtual trenajyor, panoramali va ovozli vositalardan foydalanib, turli taktik vaziyatlarni yaratish hamda bir va ikki tomonlama jangovar harakatlarni o'tkazish imkoniyati mavjud. Shuningdek, kameralar va datchiklar orqali kuzatish, tahlil qilish mumkin. Yerosti boshqaruv punktida artilleriyani jangovar qo'llash, uchuvchisiz uchish apparatlari (*dron*)ni boshqarish, zirhli jangovar texnikalarni qo'llash, suv, tog' va muhandislik to'siqlari kabi mashg'ulotlar davomida kursantlar mudofaa va hujum harakatlarini tashkil etish, shuningdek murakkab sharoitlarda to'g'ri taktik qaror qabul qilish bo'yicha amaliy ko'nikmalarini mustahkamlaydi.

Mutaxassislarining ta'kidlashicha, shaxsiy tarkibning jangovar ruhini oshirish,

nostandart qarorlar qabul qilishga o'rgatish kursantlarga amaliy mashg'ulotning xavfsizligini ta'minlash, barqaror axloqiy-ruhiy va professional sifatlarga ega bo'lish, harbiy xizmatchining o'ziga bo'lgan ishonchini oshirish, nazariy bilimlarni amaliyot bilan uyg'unlashtirish imkonini beradi. Bu yerda turli taktik vaziyatlarni qayta-qayta takrorlash, xatolarni tahlil qilish va eng samarali harakat usullarini ishlab chiqish mumkin.

Bugungi kunda harbiy ta'lim tizimida innovatsion texnologiyalarni joriy etish muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Quruqlikdagi qo'shinlar institutida yaratilgan ushbu raqamli poligon aynan shu maqsadga xizmat qilmoqda. Mazkur majmua kelajakda yurtimiz mudofaasi yo'lida xizmat qiladigan yosh ofitserlarning professional tayyorgarligini yanada mustahkamlashga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, raqamli poligon majmuasi kursantlarning jangovar tayyorgarligini yangi bosqichga olib chiqib, ularning taktik fikrlashi va amaliy ko'nikmalarini rivojlantirishda muhim o'rin tutmoqda.

**Mayor Oxunjon
JUNAYDULLAYEV,
Quruqlikdagi qo'shinlar
institutini sikl boshlig'i**



Qadriyat

BAYRAMLARDA YASHAGAN XALQ O'YINLARI

Millatning ma'naviy barqarorligi va taraqqiyoti, avvalo, uning o'z tarixi va madaniy merosiga bo'lgan munosabati bilan belgilanadi. Ajdodlardan meros bo'lib kelayotgan an'analarni asrab-avaylash, ularni keyingi avlodlarga yetkazish har qanday xalqning ma'naviy qudratini yuksaltirishi shubhasiz. Zotan tarixiy ildizlarga suyangan jamiyatda milliy g'urur va o'zlikni anglash tuyg'usi yanada yuksaladi.

Bugungi kunda esa milliy merosni qayta tiklash va uni rivojlantirish davlat siyosatining muhim yo'nalishlaridan biriga aylanayotganini barchamiz ko'rib-bilib turibmiz. Ayniqsa, **milliy sport turlari va xalq o'yinlarini – etnosportni targ'ib qilish, ularni keng ommalashtirish, yosh avlodni ushbu an'analarga jalb etish hamda xalqaro hamkorlikni mustahkamlashga alohida e'tibor qaratilmoqda.**

Gapning indallosini aytganda, bolalar va yoshlar orasida milliy o'yinlarni qayta jonlantirish, xalq o'yinlarining qadimiy va rang-barang an'analarni asrab-avaylab, ularni jahon hamjamiyatiga keng namoyon etish har bir ziyoli yelkasidegi mas'uliyatli vazifaga aylanmog'i zarur. Ana shu vazifalardan kelib chiqib, ayrim xalq o'yinlari haqida qiziqarli hamda muxtasar ma'lumotlarni jamlashga harakat qildik.

Xalq orasida keng tarqalgan "Qarabtep", ya'ni "Lanka"ni ko'pchilik o'ynagan bo'lishi kerak. Bu qadimiy o'yin bir necha asrlar davomida xalq sayillari, ayniqsa "Navroz" kabi ommaviy tantanalarda chog'ida muntazam ravishda o'ynalib kelingan. Lanka qo'y terisining junli parchasiga metall bo'lagi mahkamlab bog'langan buyum. U xalq orasida "Tepki" deb ham atalib, uni tepadigan ishtirokchi "Tepkichi" deb atalgan.

O'zbek mahallalarida mazkur o'yin nafaqat yoshlar, balki kattalar orasida ham mashhur bo'lgan. Buning sababi shundaki, "Qarabtep"ni o'ynash uchun alohida maydon yoki murakkab asbob-uskunalar talab etilmaydi. Shu bois uni deyarli har qanday joyda – mahalla ko'chalarida, hovlilarda yoki sayillarda bemalol o'ynayversalar bo'ladi. Sobiq Ittifoq davrida turli bahonalar bilan ayrim to'siqlarga duch kelganiga qaramasdan, "Qarabtep" xalqimiz orasida o'z mavqeyini yo'qotmadi va milliy o'yinlarimizning sevimli turlaridan biri sifatida saqlanib qoldi.

Buyuk qomusiy olim Abu Ali ibn Sino o'zining mashhur "Tib qonunlari" asarida inson salomatligini mustahkamlashda jismoniy mashqlar va badantarbiyaning ahamiyati katta ekanini ta'kidlaydi. U ayniqsa, insonning o'z soyasi bilan olishishga o'xshash harakatlarga asoslangan o'yinlar organizm uchun foydali ekanini qayd etadi. Qadimiy yozma manbalarga ko'ra, "Qarabtep"ga o'xshash o'yinlar asosan chorvachilik bilan shug'ullanuvchi xalqlar yashaydigan hududlarda keng tarqalgan. U turli nomlar bilan ham yashagan.

"Lanka" atamasining kelib chiqishi haqida ham turli fikrlar mavjud. Ayrim tadqiqotchilar uni xitoy tilidagi "lyan-ga" so'zi bilan bog'lasa, boshqalar esa fors tilidagi "lang", ya'ni "oqsoq" ma'nosini anglatuvchi istiloh bilan izohlaydi.

Tarixiy manbalarda keltirilishicha, bu o'yin haqidagi dastlabki ma'lumotlar eramizdan avvalgi V asrga borib

taqaladi. Dastlab u harbiy tayyorgarlik jarayonining bir qismi sifatida qo'llangan bo'lib, sarkardalar askarlarning jismoniy tayyorgarligi va ruhiy barqarorligini oshirish maqsadida undan foydalangan. Keyingi ming yil davomida esa "Qarabtep" o'yini Turon zaminidan savdo-sotiq va madaniy aloqalar orqali Osiyo hamda Sharq va Yevropa mamlakatlariga ham tarqalib ketgan.

Afsuski, sobiq Ittifoq davrida bu o'yinga nisbatan ko'pincha salbiy qarashlar bo'lgani, uni inson salomatligiga foydasi yo'q, shunchaki ermak sifatida baholashganini ham unutmasligimiz kerak. Aslida esa "Qarabtep" va shunga o'xshash xalq o'yinlarida insonni o'ziga maftun etadigan joziba, oyoq yordamida havoda bajariladigan qo'l va oyoq harakatlarining hamohangligi, chiroyi mujassam. Bu o'yinning go'zalligi, tepki havoda qanchalik muallaq tarzda ushlab turilsa, shunchalik yuksak samara berishi bilan ham namoyon bo'ladi.

Shu o'rinda ta'kidlash joizki, yurtimizda xalq o'yinlarini qayta jonlantirish va asrab-avaylash borasida sezilarli izlanishlar bo'y ko'rsatmoqda. Xorazm Ma'mun akademiyasi olimlari va izlanuvchilari bu sohada har qachongidan ham faol ish olib bormoqda. Tadqiqotning o'ziga xos yangiligi shundaki, bugunga qadar Xorazm xalq o'yinlari borasida alohida ilmiy izlanishlar kam bo'lgan edi. Hozirda esa "Pachiz", "Podsho-vazir", "Oltin qoboq" (qovoq), "Ko'k bo'ri", "Shirinnavot" kabi qadimiy va unutilgan xalq o'yinlari haqida qimmatli ma'lumotlar to'plangan. Ushbu o'yinlar asosan o'tgan asrning 40–70-yillariga qadar keng tarqalgan bo'lib, hozirgi kunda ular unutilish arafasida turibdi.

O'quvchilarga tushunarli bo'lishi uchun mazkur o'yinlarning tarixiga akademiya ilmiy tadqiqotchilari tomonidan to'plangan ma'lumotlar asosida qisqacha nazar solamiz:

"Pachiz" – nardaga o'xshab o'ynalib, asosan yigitlar tomonidan ziyofatlarda uyushtirilgan. U chig'anoqlar orqali o'ynalib, o'yinda 2 yoki 4 ishtirokchi qatnashgan va oxirida g'olib tomon mag'lub tomondan turli shartlarni bajarishni talab qilgan.

"Podsho-vazir" o'yini – to'rt ishtirokchi turli obrazlarda: podsho, vazir, so'fi va o'g'ri sifatida qatnashgan. O'yin maxsus tayyorlangan qo'y oshig'i yordamida bajarilgan, bu oshiq qo'yning keyingi ikki oyog'ini tizza bo'g'imidan ajratib olingan suyakdan iborat bo'lgan. O'yin sahnaviy ko'rinishga ega bo'lgani bilan ham boshqalardan ajralib turgan.

"Oltin qoboq (qovoq)" – bu merganlik va aniqlikni talab qiluvchi qadimiy xalq o'yini hisoblanadi. Odatda, katta sayillar, to'yalar va tantanalari marosimlarda o'ynalgan. O'yinni tashkil qilish uchun besh-olti metrlik uzun yog'ochlardan

to'rttasi bir-biriga bog'lanib ko'tarilgan, so'ng qo'yning orqa oyog'idan olingan oshiq yoki tanga ip bilan mahkam bog'langan. Bog'langan buyum "oltin qoboq" deb atalgan. Qadimda oltin qoboqqa oyoq yoki o'q bilan urgan, keyinchalik multiq itxiro qilingach, undan ham o'q uzilgan. Oltin qoboqqa to'g'ri o'q uzgan shaxsga odatda, ot yoki tuya sovg'a qilingan. Merganlar saf tortib, navbatma-navbat uq uzib, mahoratini namoyon etgan.

"Ko'k bo'ri" – Xorazmda keng tarqalgan xalq o'yinlaridan biri hisoblanadi. O'yinni tashkil qilishda bir echkining bo'yni kesilib, qoni oqizilgandan so'ng ip bilan qayta tiklanar edi va echki maydonga tashlanardi. Otlilik chavandozlar avval maydon atrofida uch aylanib ot choptiradilar, so'ng esa ot ustida "Ko'k bo'ri"ni egallab qochishar edi. Galma-gal ishtirokchilar bir-biridan "Ko'k bo'ri"ni tortib olib qochishar, shunday qilib o'yin qizigandan qizigan.

"Shirinnavot" – bu xalq sayillari va marosimlarida o'ynalgan yana bir an'anaviy o'yin. O'yinda yigit va qizlar alohida guruhlariga bo'linib qatnashgan. Ayvonli hovlida o'tkazilgan ushbu o'yinda yigitlar ayvon tomiga chiqib, arqonga bog'langan qovunni qizlar tomonga tushirishgan. Qizlar qovunni olib chiqishi kerak bo'lgan. O'yin oxirida g'alaba qozongan taraf mag'lub tomondan turli shartlarni bajarishni talab qilgan.

Tarixchi olim **Shohista O'ljayevaning** ta'kidlashicha, Amir Temur davrida maydon tomoshalari orasida ot bilan bajariladigan poyga, uloq chopish (ko'pkari), otdan ag'darish, chavgon, qaboq o'yini, shuningdek haqqoniy kuch sinovi sifatida kurash, qilich, nayza, gurzi va boshqa jangovar qurollar bilan o'tadigan bellashuvlar, shuningdek qo'chqor va xo'roz urishtirish kabi qadimiy o'yin va musobaqalar mashhur bo'lgan.

Har bir guruh, jamoa yoki urug' o'z vakilini yoki uning o'rgatilgan oti, xo'roz yoki qo'chqorini qo'llab-quvvatlab, tarafini olgan va ruhlantirgan.

Ibn Arabshoh ushbu tantanalarning xalq bayrami darajasiga ko'tarilgani haqida mufassal to'xtalib o'tadi: **"Har bir hunarmand o'z hunariga bog'liq narsada jidd-u jahd ko'rsatdi, har bir san'at ahli o'z san'atiga mansub narsada imkonidan ham oshirib hunarini namoyon etdi. Hatto bir bo'yirachi (qamishdan) mukammal qurol-yaroqli otliq yasab chiqardi va uning suratini kamoliga yetkazdi, tirnoqlar va kipriklarini, yoy, qilich va boshqa taalluqli narsalarning hammasini daqiq usulda kamoliga yetkazdi. Paxta tituvchilar esa paxtadan tikligi yarashgan, baland va**

pishiq ishlangan, go'zal va chiroyli mezanalar tayyorladilar. Shuningdek, zargarlar, temirchilar, etikdo'zlar, yoy yasovchilar va boshqa hunarmandlar, musiqa, hazil-mutoyiba va latifalar sohibi bo'lgan ijodkorlar ham o'z san'atlarini namoyon etdi".

Yuqorida ta'kidlaganimizdek, xalq o'yinlari bilan bog'liq ma'lumotlar epik dostonlarimizda, tarixiy asarlarda va xalq termalarida ko'plab uchraydi. Ular o'yin turiga qarab, mavsumiy hisoblangan va ma'lum guruhlariga tasniflangan.

Masalan, ovchilik o'yinlaridan "Oshiq-moshiq", "Xappak tosh", hunarmandlik o'yinlaridan "Lanka", "Ko'z bog'lar", dehqonchilik o'yinlaridan "Qo'riqchi", taqlidiy o'yinlardan "Kim oladi-yo, shuginani-yo", "Xo'roz urishtirish", harakatli o'yinlar turkumiga kiruvchi "Halinchak", so'z-harakat o'yinlaridan "Oq terakmi – ko'k terak", "Arqon tortishuv", kurash va u bilan bog'liq o'yinlar sirasiga kiruvchi "Milliy kurash", "Yelkada kurash", "Bel olish kurashi", chavandozlik o'yinlaridan "Piyoda poyga", "Eshak mindi" kabi asrlar elagidan o'tib kelayotgan milliy o'yinlar shular jumlasidan.

Xalq dostonlari va termalarini mutolaa qilar ekansiz, o'nlab xalq o'yinlariga duch kelasiz va ularning har biri puxta o'ylangan reja va foydali xususiyatlar asosida qurilganiga takror-takror amin bo'lasiz.

Masalan, hunarmandchilik o'yinlari va qo'shiqlari tasnifiga "Dondarak", "Charxpalak", "Besh barmoq", "Paqilloq", "Chig'iriq", "Uzuk soldi", "Varrak", "Sartarosh", "Ko'z bog'lar" va boshqa o'yinlarni kiritadigan bo'lsak, dehqonchilik o'yinlari va qo'shiqlariga "Palaxmon", "Jon burgam", "Samon sepd", "Chanoq o'yini", "Shaftoli shakar", "Qo'riqchi" kabilarni, taqlidiy o'yinlar va qo'shiqlarga esa "Xolaxola", "Topoloq", "Kim oladi – urishtirish", "Oqsoq turna", "Bosari", "Asalari", "G'ozlar" va shu kabi ko'plab o'yinlarni keltirib o'tishimiz mumkin.

Xulosa qilib aytish mumkinki, xalq o'yinlari nafaqat tarixiy meros, balki xalq ruhiyati, urf-odatlar va milliy qadriyatlarini o'zida mujassam etgan bebaho ma'naviy boylikdir. Ular avlodlar avlodga o'tib, jamiyatimizning ijtimoiy va madaniy hayotida muhim o'rin tutadi. Xalq o'yinlari insonlarda jamoaviylik, hamjihatlik, epchilik va zehnni rivojlantiradi, shu bilan birga milliy o'zligimizni saqlashga xizmat qiladi.

Shu bois ular faqat o'tmishdan qolgan meros emas, balki bugungi kun hayotida ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan, kelajak avlodlar bilan birga yashab, rivojlanib boradigan jonli madaniy boylik sifatida doimo bardavom bo'lib qolaveradi.

Kapitan Bobur ELMURODOV,
"Vatanparvar"



Ma'rifat manbai

KITOBXON DO'STLARGA MAKTUB

Men qachon bu daryoga tushib qolganimni bilmayman. Balki, bolaligimning beg'ubor bir onida, balki, qalbim ilk bor iztirobni his etgan damlarda uning sokin oqimiga qo'shilib ketgandirman. Bu shunday ulug' daryoki, uning og'ushida goh o'zimni osmon bag'rida parvoz qilayotgandek his qilsam, gohida yetti qavat yer qa'riga tushib, inson qalbining eng chuqur, eng sirli qatlamlarini kezib yurgandek bo'laman.



Bu daryoda oqarkanman, o'zimdan ajralib chiqib, boshqa insonlarning dardida yonishni o'rgandim. Begona qalblarning og'rig'i menga ham tanish bo'lib qoldi. Ularning quvonchi yuragimni yoritdi, armoni esa ichimda jim titroq bo'lib yashadi. **Shu daryoda suzib yurib, yolg'izlik ham bir maktab ekanini angladim: o'zim bilan yolg'iz qolishni, qalbimning sokin ovozini tinglashni o'rgandim.**

Bu oqim menga yig'lashni o'rgatdi – ko'z yoshlarim bilan qalbim yengillashishini. Kuylashni o'rgatdi – dard ham, quvonch ham ohang bo'lib tilga ko'chishini. Sog'inishni o'rgatdi – inson qalbi ba'zan uzoq ufoqlarga termilib, nimanidir izlab yashashini. Qismat parchalari orasida yonayotgan taqdirlarning oh-u zorlariga qo'shilib kuydim. Ba'zan dardli yuraklarning sukutiga sherik bo'ldim, ba'zan esa zafar quchgan askarlar safida g'urur tuydim.

Shunday qilib, ko'nglimni bu daryoga bog'ladim. Endi uning suvisiz yashash og'ir. Chunki bu daryo ruhimning nafasi, qalbimning ovozi, hayotimning ma'nosiga aylangan. Unda suzmay yashash, go'yo suv ichmay, yashashga urinish kabidir.

Bu daryoning nomi – adabiyot. Va men endi uning oqimida yashayman.

Meni bosh-adog'i ko'rinmagan kengliklar sari eltgan, qalbimni ummonlar tomon yetaklagan narsa kitobdir. Agar kitob bo'lmaganida, ehtimol, men na shoir, na biror ishning boshini tutgan inson bo'lib yetishardim. Kitob insonni o'ylashga, his qilishga, o'zini anglashga o'rgatadi.

Ba'zan hayot shunday lahzalarni taqdim etadiki, yashashga ham kuching yetmay qoladi. Ba'zan esa o'lim degan tushuncha yuragingga qo'rquv soladi. Ana shunday damlarda baribir **hayot qarshisida mardona turishni, sinovlarga bardosh berishni menga o'sha ikki olamning mo'jizasi – kitob o'rgatdi.**

Kitob o'qimagan odam, ehtimol, bir insonninggina hayotini yashab o'tishi mumkin. U bir inson kabi aldanadi, aldaydi, sevadi, seviladi, hatto baxtga ham yetishi mumkin. Ammo u tugal baxtning mohiyatini, hayotning cheksiz ranglarini to'liq anglab yetolmaydi. Chunki kitob insonni minglab taqdirlar, minglab qalblar bilan yuzlashtiradi.

Adabiyot esa insonni o'zga bir olam sari yetaklaydi. Axir **Otabekning muhabbatini, Kumushning sog'inchini, Zaynabning iztiroblarini anglash uchun ham mutolaa zarur emasmi?**

Birgina "O'tkan kunlar" asarini olsak, Abdulla Qodiriy bobomiz o'sha kezlarda yozib ketgan fikrlar, ogohlantirishlar va bashoratlarni bugungi kun bilan hamohang jaranglamaydimi? Go'yo asar sahifalaridan zamonlar osha bizga murojaat qilayotgandek bo'lmaydimi?

Shunday ekan, allaqachon yaratilgan haqiqatlarni qayta kashf etib, uni yangilik deb jar solishdan ne naf? Axir hayot, inson qalbi, muhabbat va iztirob haqida eng chuqur haqiqatlar allaqachon kitob sahifalarida bitib qo'yilgan-ku. Bizga esa ularni anglash, ulardan saboq chiqarish va hayotimizga tatbiq etishgina qoladi.

Kitobxon do'stlarim, siz dunyoning eng baxtli odamlarisiz. Chunki qo'lingizda oddiy sahifalar emas, balki asrlar davomida insoniyat tafakkuri, hikmati va orzulari mujassam bo'lgan bebaho xazina bor. Kitobga oshno bo'layotgan yoshlar – siz eng to'g'ri yo'ldan ma'rifat sari, tafakkur sari, kamolot sari ketayotgan toliblarsiz. **BU YO'L** – buyuk ajdodlar iz qoldirgan sharafli yo'l. **BU YO'L** – Alisher Navoiy hikmatlari bilan nurlangan yo'l, Zahiriddin Muhammad Boburning jasorati va tafakkuri bilan mustahkamlangan yo'l. **BU YO'L** olis ufoqlarga nigoh

tikib, yulduzlar sirini izlagan Mirzo Ulug'bekning ilm yo'lidir. **BU YO'L** yelkasida qancha sinovlar, qancha jarohatlar bilan bugunning yorug' kamoliga peshvoz chiqayotgan o'zbek xalqining mashaqqatli, ammo sharafli yo'lidir.

Kitob – inson qalbini uyg'otadigan nur. U tafakkurni kengaytiradi, ko'ngilni poklaydi, insonni borliqni chuqurroq anglashga yetaklaydi. Kitob o'qigan inson vaqt va makon chegaralaridan oshib, o'tgan asrlar bilan suhbat quradi, kelajak sari dadil qadam tashlaydi.


Siz esa ana shu buyuk yo'lning davomchilari, egalarisiz. Sizlarning qo'lingizda ma'rifat mash'ali bor. Uni so'ndirmasdan, yanada balandroq ko'tarib borish – sizning sharafli vazifangiz. Kitob, adabiyot va ishonch yuklangan karvonni o'z manzili sari yetkazish sizning ham farz, ham qarzingiz erur.

Zero kitobga mehr qo'ygan qalb hech qachon zulmatda qolmaydi. Ma'rifat yo'lidan yurgan inson esa albatta, kamolot manziliga yetadi. **Sizlar esa ana shu yorug' yo'lning umidi, ertangi kunning tayanchi va ma'rifat bayrog'ini baland ko'taradigan avlodsiz.**

Muhammadali G'AFFOROV,
"Vatanparvar"



O'tmish sadosi



O'LIMIDAN SO'NG QAHRAMONGA AYLANGAN “ELCHILAR”

yoxud Artur Konolli va Charlz Stoddart kim edi?

17-iyun 1842-yil. Tushga yaqin poytaxt Buxoro shahri bosh maydonida mamlakat uchun xavf sifatida e'tirof etilgan ikki mahkum amir farmoniga binoan, omma oldida qatl etiladi. Chunki ular mamlakatda Britaniya imperiyasi manfaatlarini yo'lida axborot yig'ish bilan shug'ullanayotgan paytda amir lashkarlari tomonidan qo'lga olinib, josuslikda ayblangan ingliz ofitserlari edi.

Ushbu mash'um voqeadan so'ng ko'p o'tmay, Hindistonda lord Ellenboroning buyrug'i bilan bayramlar nishonlanayotgan bir paytda Tehrondagi Britaniya vakolatxonasiga mudhish xabar yetib keladi. Xabarni bir paytlar Artur Konollining qo'l ostida ishlagan va endigina Buxorodan qaytgan yosh fors yigiti yetkazgandi. Bu xabar Kobul fojiasi ta'sirida og'ir ahvoli hammaning yodidan ko'tarilgan Konolli va Stoddartning o'limi haqida edi.

Buxoroda o'ta og'ir jazoga mahkum etilgan hamda tirikligida Britaniya hukumati tomonidan tan olinmagan va o'lgandan so'ng qahramonga aylangan bu ikki ingliz Konolli va Stoddart kim edi?

Charlz Stoddart ingliz harbiy razvedkachi ofitseri edi. U 1806-yil 23-iyulda Britaniyaning Ipsuich shahrida tug'ilgan. U Angliya va Rossiya imperiyalarining Markaziy Osiyoni bosib olishdagi o'zaro raqobatini ifodalovchi “Katta o'yin” davrida ushbu mintaqadagi davlatlar to'g'risida harbiy-strategik ma'lumot yig'ish bilan shug'ullangan mashhur britaniyalik josus hisoblanadi. Charlz harbiylar oilasida tug'ilgan bo'lib, uning ushbu sohaga qiziqishi otasi mayor Stiven Stoddartdan o'tgan edi. U dastlabki ta'limni Norvich maktabida olgan, so'ngra Qirollik harbiy kollejidan Qirollik shtabi korpusi tarkibiga o'tkazilgan Sendxerstda o'qishini davom ettirgan.

1838-yilning kuzida Tehrondagi diplomat va davlat arbobi ser Jon Makneylning o'sha paytda Hirotga hujum qilish maqsadida shaharga yetib kelgan fors hukmdori qarorgohida bo'lgan xodimi polkovnik Charlz Stoddart shoshilinch Buxoroga yuboriladigan bo'ladi. Unga Buxoro amirini janub tomondagi qo'shnisiga (*Afg'onistonga, muallif*)

Britaniya tomonidan bo'layotgan hujumdan xavotir olmaslikka ishontirish va Sankt-Peterburgning (*Buxoro amirligiga, muallif*) hujumiga bahona bo'ladigan har qanday holatni bartaraf etish uchun (*amirlikdagi, muallif*) rus qullarini ozod qilishga ko'ndirish vazifasi yuklangandi. Shuningdek, Stoddartga Britaniya va Buxoro o'rtasida do'stlik shartnomasi istiqbollarini ushlab turish vakolati ham berilgandi. E'tiborlisi shundaki, polkovnik Charlz Stoddart zimmasiga xalqaro ahamiyatga molik bir qator vazifalar yuklanganiga qaramay, u Buxoro amirligiga rasmiy Londonning emas, balki Britaniya Hindistoni general-gubernatori lord Oklend tomonidan yozilgan bir parcha maktub orqali yuborilgandi xolos.

Albatta, Stoddartga yuklatilgan ushbu vazifalar Britaniya Hindistoni harbiy ma'muriyati tomonidan tan olingandi. Aslida unga hech qayerda qayd etilmagan og'zaki maxfiy topshiriqlar ham topshirilgan bo'lishi ehtimoldan xoli emas.

Nima uchun aynan Buxoroga shoshilinch razvedkachi ofitser yuborilmoqda?

Birinchi sabab Buxoro amirligi Rossiya imperiyasining kengayish siyosati yo'lini to'sadigan bufer davlat edi. Britaniya rejasiga ko'ra, Buxoro amirligi, Xiva va Qo'qon xonliklari bilan birga Rossiya imperiyasining Hind okeani va Fors ko'rfaziga chiqish yo'lini to'sishi lozim edi. Bu orqali Britaniya Afg'onistonni qo'shnilarining ko'magisiz bema'lol o'ziga tobe qilishni, qolgan davlatlarni esa bufer hududlar sifatida saqlashni mo'ljallagan edi. Albatta, bu hozircha shunday edi. Afg'oniston to'liq mag'lub etilgach, keyinchalik Angliyaning shimolga qarab “ishtahasi” ochilishiga hech kim kafolat beraolmasdi.

1840-yilda Xiva xoni Olloqulixon va “Ost-Indiya” kompaniyasining harbiy razvedkachisi kapitan Abbot o'rtasida bo'lgan muloqotning o'zi ham aslida inglizlar Markaziy Osiyo mamlakatlaridan nima xohlaganini ko'rsatadi. **Bu haqda tarixchi Muhammadyusuf Bayoniyning qo'lyozmasida shunday keltiriladi:**

“Ruslar... yana ellik yildan so'ng sizlarning viloyatlaringizni olur. Agar xohlasangizkim, viloyatingiz davom qo'lingizda turib, hech kishi anga mutaarriz (*qarshi, muallif*) bo'lma'ay, viloyatingizni xatlashib bizga bering. Xorazm ingliz yurti bo'ldi, degan so'z ishtihor tobsun (*mashhur bo'lsin, muallif*), andin so'ng bu xavfdin forig' bo'lursiz. Bizning sizga bu so'zimiz xoshokim nafsoniyat yuzidan bo'lg'ay, balki maxz (*samimiy, muallif*) do'stlikdirkim, g'arazimiz Rossiyaga hind yo'lini masdud etmakdir. Bizdan sizga foyda yetar, aslo zarar yetmasdur, xatlashg'onda xohishingizcha shartnoma yoza bering, biz qabul etarmiz...”

Abbotning Xiva xonligiga Angliyaning ta'sirini o'tkazib, mamlakatni mustamlakaga aylantirish uchun Olloqulixon bilan olib borgan muzokarasi uning keskin javobidan so'ng barbod bo'ladi. **Bunga Xiva xoni Olloqulixonning Abbotga aytgan quyidagi so'zi yorqin dalil bo'ladi:**

“Alhol Ul (*ruslar, muallif*) bizning ustimizga urish etgan emas. Ellik yilgacha kim bor-u kim yo'q. Biz ellik yilda kelur ishning andishasi bilan bugun yurtimizni qo'ldan birovga bermaymiz, bizdan so'nggilar ne ish etmakni xohlar etsinlar”.

Ikkinchi sabab esa Buxoro amirligi Afg'on harbiy kuchlariga yaqin joyda joylashgan bo'lib, mintaqadagi kuch sifatida inglizlar rejasiga xalaqit bera olardi.

Afg'on amiri Do'st Muhammadxon inglizlar tomonidan mag'lub etilgandan so'ng dastlab Balxga, so'ngra Buxoroga qochadi. Demak, Buxoro amirligi juda strategik ahamiyatga ega edi hamda u yerda Britaniyaning dushmani panoh topishi muqarrar edi. Shundan so'ng lord Oklend 1838-yil 1-oktabrda Simla Manifestini e'lon qiladi va 1839-yilning bahorida Britaniya Hindistonining 15 000 kishilik askarlari bilan Bolan dovonidan o'tib, Afg'onistonga hujum qiladi. Bu juda katta strategik harakat edi. Albatta, bunday keng qamrovli harbiy harakat uchun Britaniya Hindistonining g'arbiy chegarasida o'ziga ishonchli “ittifoqdosh” davlat kerak edi. Buni rasmiy hujjatda shunday ifoda etishdi: “Hindistondagi mulklarimiz xavfsizligi uchun bizning g'arbiy chegaramizda dushman ta'siriga qarshi turishga qodir ittifoqdosh bo'lishi shart”.

1839-yilning avgust oyida esa Kobuldagi Britaniya garnizoniga Stoddartning Buxoroda hibsga olingani to'g'risida xabar yetib keladi.

CHARLZ STODDARTNING BUXOROGA SAFARI

Stoddartning Buxoroga kelishi bir qator xatolar bilan boshlanadi. 1838-yilning 17-dekabr kuni Stoddart Buxoroga kelishi bilan kechirib bo'lmas, bir xatoga yo'l qo'yadi. Ya'ni Britaniya arxiv hujjatlarida ko'rsatilishicha, u amirga tegishli hurmat-izzatni ko'rsatmay, otdan tushmasdan saroyga kiradi. Bu Buxoro amirligidagi rasmiy marosim odatlariga qarshi qo'pol tarzda hurmatsizlik edi.

Tasodifan o'sha paytda o'z saroyiga qaytayotgan Buxoro amiri Nasrulloh Bahodirxon ingliz

polkovnigi va uning askarlarini shaharning bosh maydonida ko'rib qoladi. Ingliz ofitseri britan harbiy qoidalariga muvofiq, egarda o'tirgancha amirga salom beradi. Ba'zi bir manbalarda qayd etilishicha, amir Nasrulloh o'sha paytda inglizga bir muddat tikilib turgan va indamay, yana o'z yo'lini davom ettirgan.

Tarixchi Muhammadyusuf Bayoniy "Shajarayi Xorazmshohiy" asarida Stoddart haqida quyidagilar keltiriladi:

"Ingliz podshohining elchisi bo'lib kelgan Stoddart noto'g'ri tartibda amirga muloqot qildi".

Tarixchilarning qayd etishicha, Stoddartning Buxoro amiri bilan ushbu alfozdagi dastlabki uchrashuvdan keyin ham boshqa bir qator tushunmovchiliklar ro'y bergan. Amir Nasrulloxon (1826–1860) Stoddartni dastlab qabul qilgan bo'lsa-da, keyinchalik uni shubhali shaxs deb topadi. **Chunki Stoddart amir bilan dastlabki muloqotda rasmiy hujjatga ega bo'lmasa-da, Britaniya hukumatining quyidagi talablarini qo'yadi:**

Buxoroda Britaniya savdo vakilxonasi ochishi;

Britaniyalik savdogarlarga imtiyozlar berishi;

Rossiya imperiyasi bilan aloqalarni cheklashi.

Bu paytda Buxoroda Rossiya imperiyasining josusi kapitan Y. Vitkevich ham (*Stoddart kelganida*) shu yerda bo'lib, amir ingliz polkovnigini qabul qilgunga qadar, **u allaqachon Nasrulloxon bilan suhbatlashib ulgurgan edi:**

"Stoddart – britaniyalik josus. Agar siz uni qabul qilsangiz, Rossiya imperiyasi siz bilan aloqalarni uzadi".

Rossiya arxivlaridagi hujjatlarda ham Rossiya imperiyasining mamlakatda bo'lib turgan vakillari Buxoro amiriga britaniyalik ofitser haqida salbiy ma'lumotlar yetkazib turganiga ishora qilinadi.

Qolaversa, Stoddart amir bilan muloqot jarayonida Britaniyaning Afg'onistondagi harakatlarini ochiqchasiga oqlashi uni yanada ko'proq shubhalantirgandi.

Shuningdek, Buxoro amiri Nasrulloxon Stoddart Buxoroga kirib kelgan paytda, ya'ni 1838-yilning dekabr oyida Hirot amiri Yor Muhammad Xondan ham maktub oladi. Maktubda Stoddart josus ekan va uni qatl etish lozimligi ogohlantirilgandi. Chunki aynan Stoddart Hirot qamali paytida (*1838-yil, Eron armiyasi Hirotni qamal qilganda*) ishtirok etgan britan ofitseri edi. Yor Muhammad Xon uni shundan beri Britaniyaning razvedkachisi deb bilardi.

O'sha paytda Stoddart Hirot bozorlarini hamda shahardagi harbiy yurishlarni kuzatishni odat qilgan. Hirot amiri bu ma'lumotni amir Nasrullohga Stoddartning josuslik faoliyatining dalili sifatida yetkazgandi. Yor Muhammad Xonning bu tashabbusi aslida



Hirotning Buxoro bilan do'stlik munosabatlarini mustahkamlash uchun qilingan harakat edi.

Ha, ikki imperiyaning geosiyosiy raqobati aynan Buxoro amirligida to'qnashayotgandi. Amir Nasrulloxon ushbu murakkab jarayonda Britaniya va Rossiya imperiyalarining o'rtasida qolgandi. Ya'ni har ikkala imperiya ham Buxoro amirligida nufuz o'rnatishga intilayotgan edi. Tan olish kerak, bu paytda amirlik hududida otni ancha oldinroq qamchilagan Rossiya imperiyasining ta'siri biroz kuchliroq edi. Rus diplomatlari va savdogarlari Buxoroda katta nufuzga ega edilar. Ikkinchi omil esa Rossiya imperiyasi vakillari navbatdagi muloqot jarayonida o'z nufuzidan foydalanib, amirga bosim o'tkazish orqali *"Britaniyaliklar dushman. Agar ularning josuslarini ushlab tursangiz, Rossiya imperiyasi sizni qo'llab-quvvatlaydi"*. deydi. Amir murakkab vaziyatda edi: agar Stoddartni yaxshi qabul qilsa Rossiya g'azablanadi;

rad etsa, Britaniya g'azablanadi; eng to'g'ri yechim esa shu paytgacha Stoddartning ma'lumot yig'ib, josuslik qilayotganini bo'yniga qo'yib, uni zindonga tashlash orqali vaqtini cho'zish edi.

STODDARTNING QAMOQQA OLINISHI

1838-yilning dekabr oyida Stoddart Buxoroda amirning buyrug'iga ko'ra, zindonga tashlanadi. Britaniya Davlat arxividagi hujjatlarda uning qamoqdagi sharoitlari tafsilotlari keltirilgan. Unga ko'ra, Stoddartni Siyohchoh (*Qora xandak*) deb nomlangan jirkanch yerosti zindonga tashlanadi, bu yerda o'liklar, qurtlar va hasharotlar ko'p edi.

Ba'zilar sodir bo'lgan ushbu voqealarda dimog'dorligi va uquvsizligi uchun Stoddartning o'zini ayblashadi. Chunki u inglizlar iddaosi bo'yicha "elchi" sifatida borayotgan bo'lsa-da, Sharq diplomatiyasining nozik usullaridan ta'lim olmagan edi.

Vaholanki, u o'shanda Buxoro amirligi an'alariga hamohang bo'lgan fors shohi huzuridan kelayotgandi. Shunday ekan, aslida bu yerda Stoddartning baxtsiz taqdiriga javobgarlik qaltis topshiriq uchun uni tanlagan mas'ul shaxslar zimmasiga tushardi. Zotan, Tehrondagi ser Jon Makneynning o'zi qadim Sharqning nozik odob-axloqini yaxshi bilgan.

1839-yilda Britaniya armiyasi Afg'onistonda butunlay bosib oladi. Bu vaziyat Amir Nasrulloxonni yanada xavotirga soladi.

1839-yilning may oyida esa Afg'onistondagi Britaniya qo'shinlari harakatlari tufayli Stoddart holati biroz yaxshilanadi. Amir uni zindondan chiqarishga buyruq berib, nisbatan yaxshiroq joyda saqladi. Biroq u to'liq ozod qilinmaydi, deydi Jozef Volf o'z asarida.

Stoddart uy qamog'ida saqlanayotgan bo'lsa-da, bu ahvolda uni xursand qiladigan sabablar juda kam edi. Uning Buxoroni tark etishga oxirgi umidi Britaniya tomonidan Kobuldan qutqaruv ekspeditsiyasini yuborish ekanini yaxshi his qilardi. Buni Stoddartning yashirincha Angliyaga – oilasiga yuborgan maktublaridan ham bilsa bo'ladi: **"Mening ozod qilinishim, qo'shinlarimiz Buxoroga juda yaqin kelmagunicha amalga oshmasa kerak"**.

Qutqaruv operatsiyasidan darak bo'lmagach, u juda tushkunlikka tushadi.

Ammo K. Neyman esa o'z asarida yuqorida bayon etilganlardan ancha farqli fikrni qayd etadi.

Inglizlarning Afg'oniston poytaxti Kobulgacha bosib kelishi (1839) va Angliya hukumati Stoddartni ozod etishni so'rab, Buxoro amiriga xat yuborishidan xavfsirashi amir Nasrulloxonni ingliz josusini zindondan bo'shatishga majbur etadi. Ammo Stoddart o'z qabih maqsadlarini amalga

oshirmasdan, Hindistonga qaytishni istamaydi. Stoddart Hindiston hokimlaridan biriga: **"Men bu yerda biroz qolishga qaror qildim, Yer sharining bu qismidagi mamlakatlarda Britaniya mamlakatining zo'r ta'sirini joriy qilish uchun qo'limdan kelgan barcha chorani ko'raman"**, degan mazmunda xat yozgan edi.

Demak, ushbu maktubdan ko'rinish turibdiki, Stoddart kerakli axborotni yig'magani sababli Hindistonga qaytishni xohlamagan. Ammo Stoddart Britaniya agenturasi uchun Buxoroda deyarli hech qanday ish qilishga ulgurmasdan, tez orada yana ikkinchi marotaba zindonga tashlanadi. Uning barcha to'plagan ma'lumotlari esa Buxoroda qolib ketadi.

Ammo vaziyat shunday bo'lsa-da, Rossiya imperiyasi tomonidan xavf ortib borayotgan ayni shu damda Buxoro amiri tomonidan ruslarga qarshi bir necha bor inglizlar bilan bitim tuzish istagi bildiriladi. Lekin ushbu takliflar inglizlar tomonidan e'tiborsiz qoldiriladi. Ruslarning Xivaga hujumi muvaffaqiyatsiz yakunlanganidan xabar topgach, hafsalasi pir bo'lgan amirning ham ushbu qiziqishlari so'nadi.

1841-yilning bahorida Rossiya imperiyasi tomonidan amir Nasrulloxonga bir necha bor murojaat qilingandan so'ng u ikkinchi marta Stoddartga Orenburg orqali ketishga ruxsat beradi. Ammo Stoddart bu taklifni rad etadi, chunki xorijiy davlat vositachiligiga murojaat qilish uning g'ururiga tekkandi. Chunki u Rossiya orqali emas, balki o'zi kelgan yo'l orqali ketishni xohlagandi.

1841-yilning 8-sentabrda rus elchisi Konstantin Fyodorovich Butenev Buxoroga kelgach, Stoddart bilan uchrashadi. Oradan o'n kun o'tgandan so'ng Stoddart <https://t.me/Illustrationlessons> darta u y qamog'iga o'tishga ruxsat beriladi. Albatta, bu rus elchisining ta'siri edi.

Britaniya tomonidan Stoddart qamoqda bo'lgan davrda islom dinini qabul qilishga majbur bo'lgani iddao qilinadi. Britaniya konsul xizmatining hisobotlarida aytilishicha, go'yoki bu amirning bosimi ostida sodir bo'lgan emish.

1841-yilning sentabr oyida Rossiya imperiyasining Markaziy Osiyoga kirib kelishiga qarshilik ko'rsatish maqsadida ushbu mintaqada mamlakatlariga o'ta mohir ingliz harbiy razvedkachisi kapitan Konolli yuboriladi. Aslida Britaniya Hindistonning razvedkaviy ahamiyatga ega bo'lgan ushbu missiyasi ham Buxoro amirligida hibsdan saqlanayotgan razvedkachi polkovnik Charlz Stoddart missiyasining mantiqiy davomi edi.

(Davomi keyingi sonda).

**Komiljon HASANOV,
O'z FA tarix instituti
bo'lim boshlig'i**



Mardlik maktabi



YOSH CHEGARACHILAR — VATAN QALQONIGA AYLANAYOTGAN AVLOD

Davlat xavfsizlik xizmati Chegara qo'shinlari tomonidan an'anaviy tarzda o'tkazib kelinayotgan "Yosh chegarachilar" harbiy-vatanparvarlik musobaqasi chegaraldi hududlardagi umumta'lim maktablari o'quvchi-yoshlarining qalbida yurtga muhabbat va sadoqat tuyg'ularini yanada oshirish, ularni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, bo'sh vaqtlarini mazmunli tashkil etib, Chegara qo'shinlarining shonli va jangovar an'alarini targ'ib etgan holda sohaga qiziqtirishga xizmat qilib kelmoqda.

Ayni kunlarda musobaqaning tuman (*shahar*) bosqichi butun respublikamiz bo'ylab keng qamrovda tashkil etilayotgani ham so'zimizning amaldagi isbotidir.

Xususan, Toshkent va Qibray tumanlari bosqichlarida Chegara qo'shinlari mas'ullari, Yoshlar ittifoqi Toshkent viloyati kengashi harbiy qism bilan ishlash bo'limi, viloyat maktabgacha va maktab ta'limi bo'limi, Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi Toshkent tumani bo'linmasi, tuman yoshlar ishlari bo'limi vakillari hamda boshqa hamkor tashkilotlar ishtirok etdi.

Jamoalar safda shaxdam qadam bilan qo'shiq aytib yurish, o'zlari tayyorlagan albom, vimpellar hamda maxsus harbiy liboslar ko'rigi, bilimlar sinovi, AK-74 avtomatini noto'liq qismlarga ajratish hamda yig'ish, granata uloqtirish, uzoq va qisqa masofaga yugurish, turnikda tortilish, shuningdek jangovar o'q otish shartlari bo'yicha o'zaro bellashdilar.

Yakuniy natijalarga ko'ra eng yuqori ball to'plagan Toshkent tumanidagi 26-umumta'lim maktabining "Lochinlar" hamda Qibray tumanidagi 28-umumta'lim maktabining "Qalqon" jamoalari g'oliblikni qo'lga kiritib, musobaqaning viloyat bosqichiga yo'l oldilar.

Qashqadaryo viloyatida ham musobaqalar qizg'in tarzda kechib, ishtirokchi jamoalar o'zlarining epcilliklari, chaqqonliklari hamda zukkoliklarini namoyon etgan holda g'alaba sari intildilar. Ayniqsa, bilimlar bellashuvi, granata uloqtirish va jangovar o'q otish shartlari yoshlarda katta qiziqish uyg'otib, yakuniy natijalarga ko'ra faxrli o'rnlarni egallagan jamoalar tashkilotchilarning esdalik sovg'alari, maxsus kubok va diplomlar bilan taqdirlanib, navbatdagi bosqich sari yo'l oldilar.

Yoshlarni Vatanga muhabbat, harbiy burchga sadoqat ruhida tarbiyalash, ular o'rtasida sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish, mardlik, jasurlik, shijoat, qat'iyat



tuyg'ularni shakllantirishga yo'naltirilgan ushbu musobaqa Sirdaryo viloyatida ham harbiy qism mas'ullari, viloyat yoshlar ishlari boshqarmasi, O'zbekiston yoshlar ittifoqi Sirdaryo viloyati kengashi va boshqa jamoat tashkilotlari bilan hamkorlikda tumanlardagi chegaraldi hududlarda joylashgan umumta'lim maktablarida tahsil olayotgan chaqiriqqacha tayyorgarlik yoshidagi o'quvchilar o'rtasida o'tkazildi.

Tadbiring ochilish marosimida so'z olganlar bellashuvning yoshlar hayotidagi o'rni va kasb tanlash borasidagi ahamiyati xususida to'xtalib, unda g'olib bo'lish uchun nafaqat kuch, bilim va tafakkur, balki jamoaviy hamjihatlik va albatta, birdamlik ham muhim ahamiyatga ega ekanini alohida ta'kidladilar. Shuningdek, safimizga qo'shilayotgan

yangi, bunyodkor kuch bo'lgan yoshlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, ularning iste'dodlarini rag'batlantirib borish barchamizning oldimizda turgan muhim vazifalardan biri ekani ham qayd etildi.

Oltiariq hamda Rishton tumanlarida ham tuman bosqichlari ko'tarinki ruhda tashkil etilib, ushbu jarayonlarda minglab yoshlar sog'lom raqobat ruhida bellashish barobarida o'zaro do'stlashish imkoniga ham ega bo'ldilar.

Biz musobaqaning dastlabki bosqichida muvaffaqiyatli qatnashib, navbatdagi jarayonlarga yo'l olgan barcha jamoalarga omad tilagan holda, eng kuchlilarni respublika bosqichida kutib qolamiz.

Mayor Farida BOBOJONOVA
DXX Chegara qo'shinlari



Tarix bilan yuzma-yuz

AMIR HAYDAR BAHODIRXON MAKTUBOTLARIDAGI HAQIQATLAR

O'zbekiston Fanlar akademiyasi Sharqshunoslik institutining boy qo'lyozma xazinasida "Sayyid Amir Haydar Bahodirxon maktuboti" nomli bir nodir qo'lyozma saqlanadi. Unda Buxoroyi sharif taxtini 1799 – 1800-yildan to 1826-yilga qadar egallab turgan Amir Haydarning turli rasmiy maktub va hujjatlarining nusxalari (*jami 963 ta*) jamlangan. Ular amir hukmronligi yillarida bitilgan. Maktublar fors-tojik tilida bo'lib, ularning asosiy qismi Buxoroning mashhur zodagonlaridan biri bo'lmish Sayyid Ahmad xoja naqib nomiga yo'llangan.

Qo'lyozmada jamlangan hujjatlar XIX asr boshida Buxoro xonligidagi ijtimoiy-siyosiy hayotning turli jihatlarini, ya'ni amalga oshirilgan har xil ma'muriy tadbirlar, harbiylar tabaqasining ahvoli, turli lavozimdagi davlat arboblarning vazifa va haq-huquqlari, Buxoro va uning atrof viloyatlarida umumiy ta'limga oid qimmatli va qiziqarli ma'lumotlarni o'z ichiga oladi. Shuningdek, mazkur hujjatlarda amirning ma'naviy dunyosi, uning madaniyatga, saroy va umuman xonlikning maishiy turmushiga munosabatini ham kuzatish mumkin. Shuning bilan birga Sayyid Haydar Bahodirxonning Buxoro xonligida yuz berayotgan barcha ishlardan yaxshi xabardorligi va ularga munosabati, islom dini aqidalari va bayramlari, nikoh, oilaviy munosabatlar va hokazolarga tegishli masalalardagi bilimdonligi diqqatni o'ziga jalb etmay qolmaydi. Bir so'z bilan aytganda, bu qo'lyozma vositasida amir hamda uning yaqinlari hayoti va faoliyatining umumlashma tasvirini beruvchi boy va xolis ma'lumotga egamiz.

Amir Haydarning shaxsi, hukmronlik tarixi, amir saroyida hukm surgan muhitga bag'ishlab yozilgan boshqa risolalar ham mavjud. **Ma'rifatparvar shoir Ahmad Donishning bir risolasida quyidagi satrlarni o'qiy:** *"Tinch va osoyishta kunlarda amir poytaxtda ekanida ulamolar guruhi uning huzurida to'planar va o'z suhbatlari bilan ko'nglini xushnud qilardi. Buxoro maxdumlarining mashhur va izzatli farzandlari guruh-guruh bo'lib arka chiqar va amir qoshida ta'lim olishar va ilmiy bahslar yuritardi. Hech kim bir davrda bunday hukmronlik tartiboti haqida so'z yuritmaydi. Uning ovozi barcha musulmon o'lkalariga tarqaldi va zaminning turli yerlari va yurtlaridan mardumlar Buxoroga ta'lim olish uchun kela boshladi. Ilm va shariat qonunlari shu qadar ravnaq topdiki, islomiyatda ilgari o'tgan biron ta'lim davrida ulamolar bu kabi izzat va shuhratga erishgan emaslar"*.

Sof ilmiy va boshqa turli adabiyotlarda bu davr haqida biz uchratishimiz mumkin bo'lgan ma'lumotlar nihoyatda umumiy tarzda. Amir Haydar hukmronligiga oid har bir tarixiy manba uni tadqiq etishda ma'lum ahamiyatga ega, albatta. Biroq o'sha davrga mansub rasmiy tarixlar asosan ma'lum qonun-qoidalarga bo'ysungan va bu qonun-qoidalar talablarini deyarli chetlab o'tolmagan, shu tufayli ular ham Buxoro xonligi ijtimoiy-siyosiy hayotining haqqoniy tasvirini to'laqonli bera olmaydi. Biz so'z yuritayotgan nodir qo'lyozma manbaning shakli va mazmuni, ya'ni uning Buxoro amirining suyuqlik jiyani yo'llagan sof va qisman rasmiy hamda yarim shaxsiy maktub – hujjatlaridan tashkil topganligi shu bilan e'tiborliki, ulardan boshqa hech bir rasmiy tarixlarda aks etmagan ma'lumotlarni o'qish va anglash mumkin.

Maktublar va hujjatlar amir devonxonasi maxsus daftarda hisobga olinib, ulardan nusxa ko'chirilgani va bu ish biron buyruq asosida emas yoki amir uchun emas, balki devonxonadagi umumiy tartib va an'anaga ko'ra amalga oshirilgani e'tiborga olinsa, mazkur qo'lyozmaning XIX asr birinchi choragidagi ijtimoiy-

siyosiy hayot tarzini haqqoniy aks ettiruvchi hujjat sifatidagi qimmatli yanada oshadi. Sayyid Haydar Bahodirxon qo'lyozma hujjatlari sahifalaridan taxt egasi bo'lmish siyosiy arbob sifatidagina emas, balki ayrim o'rinlarda kutilmagan, favqulodda sifatarga ega bo'lgan bilimdon shaxs kabi namoyon bo'ladi.

Ma'lumki, bizning adabiyot va san'atimiz yaqin kunlarga nihoyatda mafkuraviylashtirilgan va mashhur "realizm" imiz qonuniyatlar talabiga moslashtirib kelingan. "Tadqiqotchilar" biron hukmdor va uning atrofida g'ayrat hayoti, hukmdorlik tarixi va faoliyatiga bag'ishlangan ishlarida tarixiy ma'lumotlarni shunday sharhlab berganlarki, bunda amir va zodagonlar muttasil aysh-ishrat bilan mashg'ul bo'lgan, haramlaridan chiqmagan, u yerdan chiqqan vaqtlarini esa mazlum xalqqa yangidan yangi soliqlar solishga sarflagan. Bordi-yu, shunday bo'lsa, bizning bu tabarruk zaminimiz qanday qilib O'rta Osiyo va arab Sharq madaniyatining rivojini ta'minlagan, butun dunyoga mashhur olimlar-u sarkardalarni, faylasuflar-u muhandislarni, hunarmandlar-u musavvirlarni, shoirlar-u xattotlarni yetishtirib bergan, degan savolga bu "tadqiqotchilar" javob bermagan. Endilikda esa mana shu qolipni buzib, adolatsizlikni bartaraf etmoq va asil haqiqatni ro'yobga chiqarmoq uchun ancha-muncha sa'y-harakat kerak bo'ladi.

Amir Haydar o'z maktublariga Qur'ondan ko'plab oyatlar kiritadi, ayrim o'rinlarda she'riy misralarga murojaat etadi. Maktublarda bayon etilajak maqsad ko'p o'rinlarda xonning o'z jiyani qaratga biron masala yuzasidan aytilgan otalarcha pand-nasihatlari bilan qorishib ketgan. **Maktublar asosan quyidagi aniq masalalarga bag'ishlangan:** ularda xon qo'l ostidagi yer-mulk haqida ma'lumot beradi; o'z mulkidagi qabilalar soni va ularga munosabat haqida so'z yuritadi; biron shaxs haqida konkret mulohaza bildiradi; o'zbek qabilalarini urushga jalb etish tartibi haqidagi ma'lumotlarni jamlagan chizmani keltiradi; mamlakatning u yoki bu nohiyasiga solinajak soliq miqdorini ko'rsatib o'tadi; shaharlar ko'rinishi va istehkom hamda qal'a devorlarini ta'mir etish borasida ko'rsatmalar beradi; ma'muriy apparatni ushlab turishga ketayotgan mulk va boshqa sarflarni sanab o'tadi; u yoki bu olim, muallim, foh, shuningdek qo'shni o'lkalardan kelgan mehmon va saroyning boshqa xodimlariga berilajak maosh va sovg'alar miqdorini belgilaydi. Maktublarning adresatlari doirasi nisbatan cheklangan. Yuqorida aytib o'tganimizdek, ularning aksariyati Sayyid Ahmad xoja yo'llangan va juda oz miqdorigina ayrim sarkarda, faqih va muallim-olimlarga yozilgan.

Buxoro xonligida XVIII asr oxiridayoq ko'zga tashlana boshlagan va davlat hokimiyatini mustahkamlashga qaratilgan jarayon amir Haydarning u hukmronlik qilib turgan davrda joriy etilgan yangi tartib-qoidalarda namoyon bo'lgan umumiy islohotchilik faoliyati bilan to'la mos tushadi. U islohotchilarning yaratuvchisi va ilhomchisi, mahalliy

zodagonlar esa ularni bajaruvchilari edi. Zotan, o'z qo'llarida yirik yer egaligidan tortib butun savdo-sotiq, hunarmandchilik va hokazolarni jamlagan mahalliy zodagonlarga tayanish amir Haydarga o'zi ko'zlagan islohotlarni hayotga joriy qilish imkonini berdi.


Sayyid amir Haydar Bahodirxonning Buxoro taxtini egallagan yillari mamlakatda anchayin notinchliklar davri edi. Unda bir viloyat ikkinchisiga urush e'lon qilar, boshqa bir viloyat o'zini mustaqil deb e'lon qilib, shu yo'lda o'zaro nizolar olib borardi. Marvda turkman qabilalari, Qarshi, Chorjo'y va qator boshqa shaharlarda o'zbek qabilalari qo'zg'olon ko'targan edi. Shu tufayli Buxoro amiri mamlakatda osoyishtalik va tartib o'rnatgunga qadar g'alayonchi hokimlar va qabilalar qarshiligini yengishga ancha kuch va harakat sarflashga majbur bo'ldi. Ammo bundan amir Haydar har qanday masalani ham kuch vositasida hal qilishga moyil degan fikr kelib chiqmasligi kerak. Hujjatlar uning zodagonlar va oddiy xalqqa nisbatan turli vaziyatlarda, nihoyatda o'ylab faoliyat yuritganini ko'rsatadi: bir o'rinda viloyat hokimini almashtirish yo'lidan borsa, boshqa o'rinda bozordagi narx-navolarni pasaytiradi, yana bir vaziyatda u tinchlik va osoyishtalikka erishish uchun, xalqdan olinayotgan soliqlar miqdorini kamaytirganiga guvoh bo'lamiz.

Quyidagi hujjat Buxoro amirining aholi o'rtasida umumiy zaruriy ta'limni joriy etish haqidagi qonunni amalga oshirish borasidagi tadbir va ko'rsatmalariga bag'ishlangan. **U Qarshi viloyatining hokimi Amir Haydarning jiyani Sayyid Ahmad xoja Fayziy nomiga bitilgan:**

"Abu-l-fath Amir Haydar Bahodir podshoh so'zumiz Sayyid Ahmad xoja Fayziyga.

Siyosat va shariat panohlari, faqohat va amorat dastgohlari, viloyatlarning posbonlari, fazilat va jalolat egalari, izzat va shijoat mansabdorlari bo'lmish Oxund qozi mullo Muhammad Sharif, Oxund mullo Ashur Muhammad mufti, Oxund qozi mullo Shayx, Ahmadbiy Mirzo, Do'stbiy dodxoh, Niyozbiy dodxoh, Mirzo Alibiy, Olimbiy, Ibdillobiy, Fozil eshikog'aboshi, Oxund qozi Niyozali, Oxund qozi Qurbon, Oxund qozi mullo Qulmuhammad, Oxund qozi Abdurrahim xoja, Oxund qozi Podshoh xoja, Oxund qozi Amir, Oxund qozi Orif xoja, Barot to'qsoba, Muhammad Nazarto'qsoba, Turdi Ali Miroxur, Hayot miroxur, Mirzo Ali qorovulbegi – qaysiki o'z aql-zakovotlariga ko'ra oliy marhamatga sarafroz bo'lganlarni aholiga zaruriy umumiy ta'lim berish qoidasiga muvofiq: Qarshi shahriga Mulla Ashur Muhammad, Mullo Fathullo, Mullo Qo'zi, Mullo Tong Muhammad, Mullo Shermuhammad, Mullo Safar, Mullo O'roz, Mullo Tangriberdi, Mullo Hayot Muhammad va Mullo Avaz Muhammadlarni.

O'z jamoasi uchun Mullo Qul Muhammadni, Qasmi (jamoasi) uchun Mullo Avaz Muhammadni, Maymanak (jamoasi) uchun Mullo Rahimni, Koson (shahri jamoasi) uchun Mullo



Xol Muhammadni, Qamashi (jamoasi) uchun Mullo Abdussalimni, Hisor (jamoasi) uchun Mullo Zokir xoja, Mullo Abdurrahim, Mullo Rahmonberdi, Mullo Abdurrahim Qo'shtamg'ali, Mullo Boboy qo'shtamg'alilarni.

Chiroqchi (jamoasi) uchun Mullo Barotni, Qalarshayx (jamoasi) uchun Mullo Nurmuhhammadni, Chorboq (jamoasi) uchun Mullo Ashir Muhammadni, Pistaxon (jamoasi) uchun Mullo Avaz Badalni, Irg'ovul (jamoasi) uchun Qalandar xojani, Yangiqo'rg'on (jamoasi) uchun Mullo Bobo xojani, G'urjob (jamoasi) uchun Mullo Niyoz xojani, Sherobod (jamoasi) uchun Mullo Niyoz Muhammad Elchinni, Saydobod (jamoasi) uchun Mullo Sayid Muhammadni, Kelif (jamoasi) uchun Is'hoq xoja va Mullo Mirjamoliddinlarni, Panjob (jamoasi) uchun Mullo Boymurod va Mullo Xolmirzolarini, Pashaxurd (jamoasi) uchun Mullo Hasanni, Boysun (jamoasi) uchun Mullo Xolmurodni, Qo'htar (jamoasi) uchun Mullo Abdurkarimni yuborayotirmiz. Siz mazkur muallimlarga shuni tayinlab qo'yinki, ular zaruriy umumiy ta'limni barcha tobe xalq puxta egallamoq'ini ta'minlasunlar.

Muhtasiblar ham ularga yordam ko'rsatsunlar, toki zaruriy umumiy ta'limni o'tamagan bironta ham balog'atga yetgan kishi qolmasin. Barcha kishilar umumiy zaruriy ta'limni puxta egallasinlar.

Qarshi va Hisor shaharlariga yuborilgan mazkur muallimlarning ayrimlariga uchta mahram ham berdik – ularga boshchilik qilsinlar. Kelif, Sherobod, Saydobod, Poshxurd va Panjobga yuborilgan muallimlarga ham mahramlar yetib boradilar. Va ular o'z xizmat joylarida istiqomat qilgunlariga qadar, mahramlar ham shu joyda ularning boshchiligida turmog'lari lozim. O'z xizmat haqlarini esa qonunga muvofiq oladilar.

Ko'rsatmaga muvofiq amal qiling va unga xilof ish tutmang. Vassalom. 1803–1804-yillar".

Ushbu hujjatdan ko'rinib turibdiki, hali XIX asr boshlaridayoq Buxoro xonligida aholi o'rtasida umumiy majburiy ta'limni to'la yo'lga qo'yish uchun davlat g'amxo'rlikni o'z zimmasiga olgan. Shu bilan birga, umumiy ta'lim ishlari joylarda qanday yo'lga qo'yilgani hukumat tomonidan nazorat ostiga olingan. Farmondan ma'lum bo'lishicha, Buxoro amiri joylardagi ta'lim masalalarining ahvolini bilish va shu asosda keyingi chora-tadbirlar belgilash maqsadida joylarga nazoratchilarni yuborishni o'z suyukli va ishongan jiyani topshirishining o'zi maorif masalalariga g'amxo'rlik nihoyatda mas'uliyatli ekanidan dalolat beradi. Biz kichik bir maqolada savodxonlik tarixiga oid bir hujjat matnigina havola eta oldik, xolos. Sharqshunoslik institutining qo'lyozmalar fondida saqlanayotgan shu kabi qator hujjatlar to'liq tadqiq etilsa va o'quvchilarga yetkazilsa, milliy maorif tizimimizning baquvvat ildizlari, tajriba va an'analari haqidagi bilimlarimiz yanada tiniqlashgan bo'lar edi.


Tohir MUHAMEDOV

Ota-onalarga psixolog maslahati

Maktabgacha yoshdagi bolalarning fiziologik rivojlanishi inson hayotining eng muhim bosqichlaridan biri hisoblanadi. Bu davr 3 yoshdan 6-7 yoshgacha bo'lgan davrni qamrab oladi va bolaning jismoniy, fiziologik va psixik rivojlanishida fundamental o'zgarishlar ro'y beradigan vaqtdir. Ushbu davrda bolaning organizmida sodir bo'ladigan fiziologik jarayonlarni tushunish nafaqat bolaning sog'lig'ini saqlash, balki uning to'liq rivojlanishini ta'minlash uchun ham muhimdir.



MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNING ASOSIY FIZIOLOGIK XUSUSIYATLARI



Maktabgacha yoshdagi bolalarning fiziologik xususiyatlarini o'rganish pedagogika, psixologiya va tibbiyot sohalarida katta ahamiyatga ega. Bu bilimlar bolalar bilan ishlayotgan mutaxassislarga va ota-onalarga to'g'ri yondashuvni tanlash, mos ta'lim va tarbiya metodlarini qo'llash hamda bolalarning individual ehtiyojlarini hisobga olish imkonini beradi. Shuningdek, bu ma'lumotlar ota-onalarga o'z farzandlarining rivojlanish jarayonlarini tushunish va ularga zarur yordam berish uchun o'rindir.

Maktabgacha yosh davrida bolaning organizmida sodir bo'ladigan o'zgarishlar keyingi hayot davrlari uchun poydevor bo'lib xizmat qiladi. Shu sababli bu davrda fiziologik jarayonlarning normal kechishini ta'minlash va mumkin bo'lgan buzilishlarning oldini olish muhim vazifadir.

UMUMIY FIZIOLOGIK XUSUSIYATLARI

Maktabgacha yoshdagi bolalarning fiziologik rivojlanishi

intensiv o'sish va rivojlanish jarayonlari bilan tavsiflanadi. Bu davrda bolaning bo'yi, vazni va tana tuzilishi sezilarli o'zgarishlarga uchraydi. **Bolalar bo'yi bu yoshda yiliga 5-7 santimetr o'sadi va 2-3 kilogramm vazn oladi.** Bu ko'rsatkichlar individual farqlarga ega bo'lsa-da, umumiy tendensiya barcha bolalarda bir xildir.

Maktabgacha yoshda suyak tizimi intensiv rivojlanishda davom etadi. Suyaklarning minerallashuvi jarayoni kechadi va ular mustahkamroq bo'ladi. Biroq bu jarayonning tugallanishi uchun yana bir necha yil kerak bo'ladi. Shu sababli bu yoshdagi bolalarning suyaklari hali ham nisbatan yumshoq va shikastlanishga moyil hisoblanadi. Bolaning suyak tizimini mustahkamlash uchun to'g'ri ovqatlanish, jismoniy mashqlar va quyosh nurlarining ta'siri muhim ahamiyatga ega.

Mushak tizimi ham sezilarli rivojlanishga erishadi. Bolalarning mushak massasi ortadi va mushaklar kuchayadi. Lekin bu yoshdagi bolalar uchun jismoniy mashqlarni me'yorida tashkil etish muhimdir. Uzoq muddat bir

holatda turish yoki og'ir jismoniy ishlarni bajarish bolalar uchun zararli hisoblanadi.

Yurak qontomir tizimi ham o'zgarishlarga uchraydi. Yurakning hajmi ortadi va uning ishi barqarorlashadi. Biroq yurak qontomir tizimi hali ham rivojlanish jarayonida bo'lgani uchun haddan tashqari jismoniy yuklamalar zararli bo'lishi mumkin. **Bolalarning yurak urish chastotasi kattalarnikiga nisbatan yuqori bo'lib, tinch holatda minutiga 90-110 marta uradi.**

Nafas olish tizimi ham muhim o'zgarishlarga uchraydi. O'pkalarning hajmi ortadi va nafas olish chuqurlashadi. Biroq nafas yo'llari hali ham tor bo'lgani uchun bolalar sovuqdan va infeksiyalardan oson zarar ko'radi. Bolalarning nafas olish chastotasi kattalarnikiga nisbatan yuqori bo'lib, minutiga 20-25 marta nafas oladi.

NERV TIZIMINING RIVOJLANISHI

Maktabgacha yoshda nerv tizimining rivojlanishi eng muhim jarayonlardan biri hisoblanadi. Bu

davrda miya hajmi ortadi va uning vazni kattalarning miya vaznining 90 foiziga yetadi. Nerv hujayralari o'rtasidagi bog'lanishlar intensiv ravishda rivojlanadi va miyaning turli qismlari o'rtasidagi koordinatsiya yaxshilanadi.

Miya po'stlog'ining rivojlanishi bu davrning eng muhim xususiyatlaridan biridir. Prefrontal kortikal sohalar rivojlanadi va bu bolaning fikrlash qobiliyatlari, diqqatni jamlash va o'z xatti-harakatlarini nazorat qilish imkoniyatlarini oshiradi. Biroq bu jarayonning to'liq tugallanishi uchun yana bir necha yil kerak bo'ladi.


Miyaning turli qismlarining rivojlanishi bir vaqtda emas, balki ketma-ket sodir bo'ladi. Motor sohalar birinchi bo'lib rivojlanadi, keyin sensor sohalar, eng so'ngra yuqori kognitiv funksiyalar uchun mas'ul sohalar rivojlanadi. Bu holat bolalarning rivojlanishida kuzatiladigan ketma-ketlikning biologik asosini tashkil etadi.

Miyelinatsiya jarayoni bu davrda faol davom etadi. **Miyelinatsiya** – nerv tolalarining qobiq bilan qoplanish jarayoni bo'lib, u nerv impulslarining tezroq uzatilishini ta'minlaydi. Bu jarayon avval yirik motor funksiyalar uchun mas'ul tolalarda, keyin esa nozik motor funksiyalar va kognitiv jarayonlar uchun mas'ul tolalarda sodir bo'ladi.

Nerv tizimining rivojlanishi bilan bir qatorda, bolalarning stress va his-tuyg'ularga bo'lgan reaksiyalari ham o'zgaradi. Stressga nisbatan chidamlilik ortadi, ammo hali ham kattalarnikiga nisbatan past bo'lib qoladi. Bolalarning his-tuyg'ularini tartibga solish qobiliyati rivojlanadi, ammo bu jarayon hali tugallanmagan bo'ladi.

(Davomi bor)

Abdusattor ERGASHEV,
Harbiy xavfsizlik va mudofaa universitetining
Quruqlikdagi qo'shinlar instituti dotsenti,
t.f.f.d.



Harbiy qism yettiligi

HARBIYLAR VA ULARNING OILALARI E'TIBOR MARKAZIDA

Mamlakatimizda Vatan himoyachilariga bo'lgan e'tibor va g'amxo'rlik davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Zero yurt tinchligi va osoyishtaligi uni himoya qilayotgan harbiy xizmatchilarning ruhiy barqarorligi, ijtimoiy himoyasi hamda oilaviy farovonligi bilan bevosita bog'liq. Shu bois Mudofaa vazirligi tizimida harbiy xizmatchilar va ularning oila a'zolarini qo'llab-quvvatlash, turmush sharoiti va mavjud muammolarini o'rganish, shuningdek bu yo'nalishda amaliy yordam ko'rsatishga qaratilgan keng qamrovli ishlar izchil amalga oshirilmoqda.



Xususan, Janubi-g'arbiy maxsus harbiy okrug tasarrufidagi harbiy qismlar va muassasalarda ham harbiy xizmatchilarning xizmat sharoitlari, oilaviy muhiti va ijtimoiy ahvolini o'rganish, mavjud muammolarga yechim topish maqsadida qator tadbirlar tashkil etilmoqda.

Ushbu jarayonda harbiy qismda faoliyat yuritayotgan "Harbiy qism yettiligi" a'zolari tomonidan harbiy xizmatchilar hamda ularning oila a'zolari bilan muntazam uchrashuvlar, ochiq muloqotlar va samimiy suhbatlar o'tkazilmoqda. Bunday uchrashuvlar harbiy qism komandirlari va muassasa rahbarlari boshchiligidagi tashkil etilib, unda harbiy xizmatchining faoliyati,



xizmat o'tash jarayonidagi sharoitlari, oila a'zolarining turmush tarzi hamda ijtimoiy holati atroflicha o'rganilmoqda. Ayniqsa, muloqotlar davomida harbiy xizmatchilar va ularning yaqinlarining murojaatlari alohida e'tibor bilan tinglanmoqda. Ko'tarilgan masalalarni hal etish yuzasidan mas'ullar tomonidan aniq chora-tadbirlar belgilanib, ularning ijrosi nazoratga olinmoqda. Shuningdek, harbiy xizmatchilar yashayotgan xonadonlarga tashriflar uyushtirilib, yashash sharoitlari bilan yaqindan tanishilmoqda. Bunday manzilli o'rganishlar orqali ayrim oilalarning ijtimoiy muammolari aniqlanib, ularni bartaraf etish bo'yicha amaliy



kasb etadi, – dedi podpolkovnik Davronbek Abdurahimov. – Shuning uchun ularning muammolarini o'rganish, zarur yordam ko'rsatish va doimiy muloqotda bo'lish bizning ustuvor vazifalarimizdan biridir. Aslida bunday uchrashuv va muloqotlar nafaqat muammolarni hal etishga, balki harbiy jamoada o'zaro ishonch, hurmat va hamjihatlik muhitini mustahkamlashga ham xizmat qiladi. Harbiy xizmatchilar qachonki o'zlariga va oilalariga ko'rsatilayotgan e'tiborni his etsa, xizmat vazifalarini yanada katta mas'uliyat va sadoqat bilan ado etishga intiladi. Bu judayam quvonarli.

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, harbiy xizmatchilar va ularning oila a'zolarini ijtimoiy jihatdan qo'llab-quvvatlashga qaratilgan bunday manzilli ishlar Vatan himoyachilarining ma'naviy ruhini mustahkamlash, ularning turmush farovonligini oshirish hamda harbiy jamoada sog'lom ijtimoiy muhitni shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Zero Vatan himoyachilariga bo'lgan e'tibor va g'amxo'rlik yurt tinchligi va barqarorligining mustahkam kafolatidir.

**III darajali serjant
Akbar AHMEDOV**
Termiz garnizoni

Umummilliy loyiha

YASHIL MAKON – sog'lom kelajak garovi

Inson hayoti tabiat bilan uzviy bog'liq. Har bir nafas olishimizda bizga hayot bag'ishlayotgan kislorod manbai avvalo, o'simliklar dunyosi, daraxtlardir. Mutaxassislar ta'kidlashicha, bir insonning yillik kislorod ehtiyojini qoplash uchun kamida to'rtta daraxt zarur. Demak, har bir ekilgan nihol nafaqat tabiatga, balki inson salomatligiga qo'shilgan ulkan hissa sanaladi.

Shu bois so'nggi yillarda yurtimizda ko'kalamzorlashtirish va obodonlashtirish ishlari keng quloch yoydi. Hasharlar, ommaviy ko'chat ekish aksiyalari umumxalq harakatiga aylanib bormoqda. Quvonarlisi, bu ezgu tashabbuslarda jamiyatimizning barcha qatlamlari qatori harbiy xizmatchilar ham faol ishtirok etmoqda.

Jumladan, Toshkent shahrida joylashgan harbiy qismda ham keng ko'lamlil obodonlashtirish ishlari amalga oshirildi. Vatan posbonlari tomonidan harbiy shaharcha hududida

manzarali daraxt ko'chatlari, turli gullar ekilib, hudud yanada fayzli va ko'rkam maskanga aylantirildi.

Albatta, faqat ko'chat yoki gul ekishning o'zi kifoya emas. Zero nihol ekish – ishning boshi, uni asrab-avaylash esa mas'uliyatning eng muhim qismi hisoblanadi. Shundagina bugun ekilgan ko'chatlar ertaga atrof-muhitni musaffo qiluvchi ulkan daraxtlarga aylanadi. Yurt himoyachilari ham mana shu hayotiy haqiqatdan kelib chiqib, daraxtlar va yerga puxta ishlov berib, ularning parvarishiga alohida



e'tibor qaratmoqda. Tabiatni asrashga qaratilgan bu sa'y-harakatlar orqali ular nafaqat Vatan xavfsizligini, balki uning tabiiy boyliklarini ham himoya qilayotganini amalda namoyon etmoqda.

"Yashil makon barpo etishda o'z hissamni qo'shaman" shiori ostida o'tkazilgan mazkur tadbirda barcha harbiy xizmatchilarning faol ishtiroki bu ezgu g'oyaning bugungi kunda qanchalik hayotiy va muhim ekanini yana bir bor isbotladi.

Xulosa qilib aytganda, hududlarda hashar yo'li bilan olib borilayotgan bunday obodonlashtirish ishlari

yurtimizning yanada go'zal, ekologik jihatdan barqaror makonga aylanishiga xizmat qilmoqda.

Zotan, har bir ekilgan daraxt bu kelajakka qadalgan umid, tabiatga bo'lgan mehr ifodasidir. Bugun ekilgan nihollar ertaga farzandlarimiz uchun soya-salqin, toza havo va go'zal muhit yaratadi. Shu bois "Yashil makon" g'oyasi faqat bir kunlik aksiya emas, balki har birimizning hayotiy tamoyilimizga aylanmog'i lozim.

TOQQQ matbuot xizmati

ZAMONAVIY JANGOVAR HARAKATLARDA UCHUVCHISIZ UCHISH APPARATLARINING O'RNI

Surat sun'iy intellekt yordamida tayyorlandi



XXI asrda jangovar harakatlar xarakteri tubdan o'zgarib, yuqori texnologiyalarga asoslangan, axborot ustunligini ta'minlashga qaratilgan usulga o'tdi. Bu esa qurolli to'qnashuvlarda g'alaba qozonish uchun razvedka ma'lumotlarining aniqligi, tezkorligi va ishonchiligidagi bog'liq bo'lib qolmoqda.

Bugungi kunda an'anaviy razvedka usullari ko'p hollarda yetarli samara bermayapti. Shu bois axborot va razvedkaga tayanish, yuqori texnologiyalardan foydalanish, masofadan turib olib boriladigan operatsiyalar, shahar muhitida jang olib borish, gibril va asimmetrik to'qnashuvlarda kam sezilarli, shovqinsiz va yashirin razvedka texnik vositalariga ehtiyoj ortmoqda. Shu bois razvedka texnik vositalarini takomillashtirishda

biomimetik razvedkaning o'rni alohida kasb etadi. Ayniqsa, uchuvchisiz uchish apparat (UUA) larining tabiatdagi jonzotlarga taqlid qilishi zamonaviy jangovar harakatlarda alohida o'z o'rini ko'rsatmoqda.

Tarixiy yondashdigan bo'lsak, **biomimetik atamasi** – 1958-yilda Jek E. Stiger AQSh harbiy

havo kuchlarida ilk bor ishlatilganini ko'rish mumkin. Bu atama biologik tizimlardan ma'lumot uchun texnik mahsulotlarni tadqiq qilish maqsadida ishlatilgan. Shundan so'ng Xartmut Vitte (*Hartmut Witte – Germaniya, Ilmenau universiteti*) biomexatronika sohasida ilmiy tadqiqotlarni olib borgan va robototexnikada biomimetik yondashuvni rivojlantirgan.

Bugungi kunda biomimetik UUALari bir nechta asosiy turlarga ajratilib, o'rganib kelinmoqda:

– **qushsimon biomimetik UUALar** – bu turdagi apparatlar qushlarning qanot qoqish harakatini taqlid qiladi. Qanotlarning yuqori-past harakati orqali ko'tarilish va oldinga siljish ta'minlanadi. Bunday UUALar odatda burgut, qarg'a, chayka kabi qushlar shaklida ishlab chiqiladi;

– **hasharotsimon biomimetik UUALar** asalari, kapalak, chivin kabi hasharotlarga o'xshash mikro va nano o'lchamli apparatlardir. Ular juda kichik bo'lib, binolar ichida, tor joylarda yoki yopiq muhitda harakatlana oladi; – yarim biomimetik UUALar tashqi ko'rinishi tabiiy jonzotga o'xshash, ammo parvoz mexanizmi vintli yoki gibril tizimga asoslangan apparatlardir. Shu bois bu UUALar amaliy jihatdan barqarorroq hisoblanadi.

Qisqa qilib aytganda, biomimetik razvedka tabiatdagi tirik jonzotlar, ayniqsa qush va

hasharotlarni taqlid qiluvchi uchuvchisiz razvedka apparatlari orqali axborot yig'ish usulidir. Bu yondashuv zamonaviy jangovar

harakatlarda razvedkaning yashirinligi va samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Asosiy maqsadi esa razvedka vositasini tabiiy muhit elementi sifatida qabul qildirishdir. Uning asosiy vazifasi esa dushman tomonidan sun'iy texnika sifatida qabul qilinmasdan, tabiiy muhit elementi sifatida harakatlanishdir.

Texnologik xususiyatlarining tahliliga ko'ra, mikrodrinning asosiy innovatsion jihati uning qanotlar orqali parvoz qilish sxemasi hisoblanadi. Bu usul hasharotlarga xos bo'lib, yuqori manyovrlilik va turbulent muhitda barqarorlikni ta'minlaydi. Apparat havoda osilib turish, tor joylarda harakatlanish va cheklangan hajmda samarali razvedka olib borish imkoniyatiga ega.

Shu bois qurilmada barcha komponentlar o'ta kichik hajmda joylashtirilgan bo'lib, razvedka ma'lumotlarini real vaqt rejimida uzatish imkonini beradi.

Biomimetik razvedkaning qulayligi – tashqi ko'rinishi sababli tabiiy jonzot sifatida qabul qilinadi, kam shovqinlilik – akustik aniqlanish ehtimoli juda past, radiolokatsion sezilmaslik, kichik o'lcham va materiallar, yuqori manyovrlilik – tor va murakkab muhitda harakatlanishi, operativ ma'lumotlarni tez olishi orqali razvedka ma'lumotlariga ega bo'ladi.

Taktik razvedkani olib borish davomida biomimetik mikrorobotlar quyidagi qulayliklar bilan ajralib turadi:

– shahar jangida binolar ichiga kirib borish;

– tunnellar, podvallar, kommunikatsiya shaxtalarga kirish imkoniyatiga ega;

– dushman pozitsiyalarini aniqlay oladi;

– snayper nuqtalarini kuzatish uchun juda mos keladi.

Yaqin razvedka va yashirin kuzatuv davomida esa eshitib kuzatish (*mikrofon orqali*), infraqizil kameralar yordamida kuzatuv, radiosignal manbalarini aniqlash kabi vazifalarni bajara oladi.

Shu bilan birga, ularning devorga yopishish, tomga qo'nish yoki simlarga o'tirish imkoniyati yashirin kuzatuv samaradorligini oshiradi.

Bundan tashqari, hasharotlar xulq-atvoriga asoslangan roy algoritmlari harbiy razvedkada quyidagi ustunliklarni beradi – katta hududni qisqa vaqtda qamrab oladi, bir apparat yo'q qilinganda missiyaning davom etishi, ma'lumotlarni o'zaro almashish imkoniga ega, dushman REK (*radioelektron kurash*) tizimlari haqida ma'lumotlarni beradi. Shu bois "Roy razvedkasi" (*asalari to'dasiga o'xshab birgalikda ishlaydigan dronlar orqali razvedka qilish*) kelajakda asimmetrik urush sharoitida hal qiluvchi omilga aylanish ehtimoli juda katta.

Xitoy, AQSh, Isroil, Janubiy Koreya va Yevropa Ittifoqi davlatlari biomimetik mikrorobotlar ustida faol ish olib bormoqda, xususan, 2025-yilda Xitoyda hasharotga o'xshash mikrodrinlar ommaga namoyish etib kelinayotganini ko'rish mumkin.

Masalan, 2025-yil 30-iyun kuni Xitoy Milliy mudofaa texnologiyalari universiteti tomonidan ishlab chiqilgan mikrodrin-hasharot namoyish etilgan. Ushbu qurilma biomimetika tamoyillariga asoslangan bo'lib, tashqi ko'rinishi va harakat mexanizmi jihatidan haqiqiy hasharotni, xususan chivinni taqlid qiladi. Mikrodrin yashirin kuzatuv va razvedka vazifalarini bajarish uchun mo'ljallangan bo'lib, o'ta kichik o'lcham, kam shovqin va minimal elektromagnit izga ega.

Bugungi kunda Xitoyning Milliy mudofaa texnologiyalari universiteti (*National University of Defense Technology*) tomonidan yaratilgan mikrodrin-kameralari ishlab chiqilmoqda.

Yaponiya va Koreya davlatlarida esa mini-dronlar va biomimetik robototexnikada laboratoriya tadqiqotlari bor, asosan sanoat va xavfsizlik uchun ishlatib kelinmoqda.

Isroil davlati robototexnika va razvedka sohasida mikrodrinlar va nazorat robotlardan foydalanib kelmoqda.

Kaliforniya universiteti (*Berkli*) muhandislari **diametri 1 sm. dan kichik, og'irligi atigi 21 mg bo'lgan dunyodagi eng kichik simsiz uchuvchi robotni ishlab chiqdi**. U tashqi magnit maydonlari orqali boshqariladi.

Georgia Tech instituti olimlari esa chumolilar xulq-atvorini taqlid qiluvchi mikrorobotlarni yaratdi. Ularning o'lchami 1,8 mm, qalinligi 0,8 mm va og'irligi taxminan 5 mg. Olimlarning tasavvuriga ko'ra, bunday elektron "hasharotlar" royi (*guruh*) kelajakda qishloq xo'jaligida o'simliklarni changlatishni amalga oshirishi mumkin.

Xulosa qilib aytganda, biomimetik razvedka zamonaviy jangovar harakatlarda muhim strategik ahamiyatga ega. U razvedkaning yashirinligi, aniqligi va operativligini ta'minlab, jangovar qaror qabul qilish jarayonida yuqori samaradorligi bilan ajralib turadi. Kelgusida sun'iy intellekt, yangi kompozit materiallar va avtonom boshqaruv tizimlari rivoji biomimetik razvedkaning jangovar qiymatini yanada oshirishi kutilmoqda. Shu sababli biomimetik razvedka zamonaviy va kelajak jangovar harakatlarining ajralmas qismi sifatida shakllanib boradi.

Podpolkovnik Alimardon O'TAPULATOV, Harbiy xavfsizlik va mudofaa universiteti Janubiy operativ qo'mondonlik fakulteti kafedra boshlig'i



Bor gap



Milliy filmlarda nega CHIN O'ZBEK XARAKTERI YO'Q?

Bolalik... Ehtimol, har kim unutilmas, beg'ubor damlarga bir muddat bo'lsin, qaytishni istar, aka. Ammo vaqt ortga qaytmaydi-da. Shunga qaramay, o'sha o'lmas tuyg'ularni qisman bo'lsa-da, qayta jonlantirishning imkoni bor, desam, ishonasizmi? Bu – bolaligimizda tomosha qilgan filmlar. Ha, aynan shu kadrlar, shu obrazlar, shu sodda va samimiy hikoyalar kishini beixtiyor o'tmish bag'riga tortadi, sayr qildirishga fursat beradi.

Aytgancha, o'zi umuman kino ko'rib turasizmi? Yo'q, chet el filmlarini nazarda tutmayapman. O'zimizniki, ha, o'zbek aktyorlari suratga tushgan kinolarni nazarda tutayapman. Eh, kamina ham shu filmlarimizni tomosha qilmay qo'rganiga ko'p bo'ldi. Sababini birozdandan keyin aytib beraman.

Yaqinda hamkasbim gap orasida turk kinoijodkorlar tomonidan suratga olingan "Otam va o'g'lim" (*Babam ve Oglum*) filmi haqida so'zlab qoldi.

– Qalbim ozor chekdi. Ko'zlarimga kelgan yosh hamon ichimni azobga solmoqda, – dedi u ma'yus tortib.

Bu filmni men ham avval ko'rgandim. Biroq uning barcha tafsilotlari yodimda emasdi. Shuning uchun qayta tomosha qilishga qaror qildim. Va ilk daqiqalardan o'qilmay bir qismiga aylani qoldim. "Otam va o'g'lim"da aktyorlar rolni juda yuksak mahorat bilan ijro etgan. Unda tomoshabin beixtiyor voqealar ichiga kirib ketadi. Dard, iztirob, ota va o'g'il o'rtasidagi murakkab, ammo muqaddas munosabatlar ulug'lanadi. Muhabbatni his ettirish, qayta jonlantirishga ko'rarmanni ishontiradi. Burch, sadoqat va alamni bir vaqtda tuyadi. Farzand oldidagi mas'uliyat naqadar ulkan yuk ekanini va uni hamma ham birdek ko'tarolmasligini mahorat bilan ko'rsatadi.

Gapning indallosi, bu film bugungi kunda televizorlarda tez-tez uchraydigan ba'zi kinolarga umuman o'xshamaydi. Dialoglardagi chuqur falsafa, voqealarning uzviy bog'liqligi, syujetning mantiqiy rivoji – bularning barchasi filmni yanada qimmatli qiladi. Asarni tomosha qilar ekansiz, qalbingizda nimadir o'zgaradi. O'zingizni birzum yo'qotib va yana topgandek bo'lasiz.

Agar imkoniyat bo'lsa, albatta filmni ko'rib chiqing – tavsiya etaman. Faqat yig'lamang. Chunki u oddiy maishiy mojarolarga qurilgan, yengil-yelpi asarlarga umuman o'xshamaydi. Bu yerda inson hayotidagi eng ulug' va ilohiy rishta – ota va bola o'rtasidagi azaliy muhabbat namoyish etilgan.

Xo'sh, bizda-chi? Shunday chuqur ma'noli, qalbga ta'sir qiluvchi filmlar keyingi vaqtlarda suratga olinayotimi? Kaminadan so'rasangiz, bu savolga yo'q, deya javob bergan bo'lardim. Boisi bizning telekanallarda "Keliniga suykalgan qaynota", "O'g'ri kelin", "Xiyonatkor kelin", "Boshlig'i bilan yurib ketgan kelin" kabi tuturiqsiz, bema'ni va tuzsiz allanimalar bosib yotibdi.

Go'yoki ekranlarda faqat qaynona-kelin mojarosi, oilaviy nizolar yoki xiyonat haqidagi hikoyalarga qolgandek. Bunday asarlar ko'payayotgani esa kino san'atining tarbiyaviy vazifasi haqida o'ylab ko'rishga majbur qiladi.

Axir kino, ayniqsa milliy filmlardan ibrat olinardi-ku. Qahramonlarga taqlid qilindirdi. Ularning hayoti, boshdan o'tkazgan kechinmalariga achinib, qayg'urmasmidik? Bugun hammasi o'tmishda qoldi. Endilikda ekranlarda faqat janjal, xiyonat, kelishmovchilik va oilaviy nizolar ko'rsatilmoqda. Uning jamiyatga ta'siri-chi? Ayniqsa, yoshlar ana shu siyqasi chiqqan filmlarni ko'rib, ulg'aymoqda.

Bugungi zangori ekranlarimiz tomoshabinlarga ma'naviy tuzoq qo'yayotganga o'xshamaydi. Tuyg'ularni, qadr-qimmatni, ming yillar chig'irig'idan o'tib, bizgacha yetib kelgan unutilmas an'analarga, urf-odatni oyoqosti qilayotgandek ko'rinadi. Mard yigitlarning g'ururi, ayollarning sha'ni,

oilaning muqaddas qo'rg'on ekani o'sha "ijodkor"larni qiziqitirmay qo'ygandek. Bo'lmasa, bu kabi mayda, haqiqatga mutlaqo zid bo'lgan "film"chalar bemaza qovunning urug'idek urchirmidi, tasvirga olinarmidi?

To'g'ri, har kimning ixtiyori avvalo o'zida. Demak, erkin ijod qilish imkoni ham berilgan. Biroq ijod bilan ijodning farqi bor-da. Sharoit yaratildi degani xalqning ma'naviyati bilan o'ynash, saviyasiz mahsulotlar yaratish degani emas-da. Bu olmani tishlab, qaytib butlashga sira ham o'xshamaydigan jarayon axir. Chunki mazmunan qoloq, faqat yuzaki his-tuyg'ularni ustun qo'yish, asl qadriyatlarga zid bo'lgan allanimalar urchishi qalblarni sekin-asta o'ldiradi.

Dialoglarni aytmayisizmi. Juda ham qo'pol – badiiy til me'yori yo'q. Obrazlar esa ko'proq tashqi ko'rinish bilan "jozibador" qilib ko'rsatilgan: aktrisalarda sun'iy kipriklar, shishirilgan lablar, ortiqcha grim – tashqi ko'rinish birinchi planda aks ettiriladi. Aktyorlarning esa bashang hayot tarzi, ota-ona, aka-ukaga asabiy munosabati... xullas kalom, chin o'zbek xarakteri yo'q.

Ha, aka, shunday. Yoki bu zamonaviylashuvmi? Unday bo'lsa, kino – ko'ngil oynasi, degan gap qayerda qoladi. U jamiyatning ma'naviy qiyofasini shakllantirishga xizmat qiladigan muhim maydon emasmi?

Sizga aytсам, avvallari – yoshligimizdagi kinolardan asar ham qolmagan bugun. Esingizdami? "Mahallada duv-duv gap", "Shum bola", "Chinor ostidagi duel", "Tangalik bolalar", "Suyunchi", "Masxaraboz" va "Osmondagi bolalar"... ehhe, bular durdona ekan. Nima bo'lganda ham bizning – o'zbekning oilasida qaysi jarayon qoldi o'zi aytilmagan? Nega ro'zg'orning, turmushning mushtligini hammaga qayta-qayta ko'rsatyapmiz? Keyingi yillarda biron-bir pichoqqa ilinadigan kino olindimi o'zi? Yo'q. Olinmaydi ham. Olinganlari esa dumi yulingan tovuqdek yarimta. Boshida boshlangan so'zning oxirida aksi bo'lishga o'rganib qolganimizga esa ancha bo'ldi. San'atda mantiq katta ahamiyatga ega. Yozuvchilardan biri

shunday degan edi: agar asar davomida devorda miltiq osilib turgan bo'lsa, u albatta asar oxirigacha o'q otishi kerak. Bu fikr har bir detal ijod namunasida g'oyasiga xizmat qilishi shartligini anglatadi.

Kino ham xuddi shunday. Har bir sahna, har bir obraz va har bir dialog ma'lum maqsadga xizmat qilmog'i shart.

Mayli, turklarni-ku qo'yavering. Yon qo'shnilarimiz – qozoq va qirg'iz qardoshlarimiz tomonidan suratga olinayotgan kinolarni bir ko'ring. Shunaqangi go'zal. Hayotiy haqiqatlar bor. Aktyorlar o'z rollarini yuksak mahorat bilan o'ynaydi. So'zlarda falsafa yo'g'rilgan.

Nima, bizda yo'qmi kinossenarist yoki yozuvchilarning asarlari? Tiqilib yotibdi. Faqat izlash kerak. O'qish kerak. Bir tunda o'nta ssenariy yozmay, bitta bo'lsa ham katta mohiyatga ega asar yaratish shart. Kinolarimizda aniq g'oya, aniq maqsad va chin o'zbekning fe'l-atvorini ko'rsatadigan syujet yo'q. Bizning erlar yig'loqimi? Yoki ahlini qizg'anishni unutdimi? Qizim, deb uyiga olib borgan kelinga ko'z olaytiradigan ahvolga kelib qoldikmi? Hey, biroz oshirib, toshirib yubormayapmizmi? Yoshlar nimani ko'ryapti? Kimdan o'rnak olyapti? Kino sanoati – tarbiya kompaniyasi bo'lish kerak.

Do'sti xiyonat qilsa, o'g'li pichoq suqsa, qizi onasiga tarsaki tortib yuborsa, kuyovi qaynonasiga ko'z suzsa... o'g'rilik, kazzoblik kabi masalalarga qurilganlarini-ku aytmay qo'yaveraylik. Nima bo'lganda ham taraqqiyot sari dadil qadam tashlayotgan Yangi O'zbekistonning xalqaro maydondagi imijiga bu kabi "kino"lar ta'sir o'tkazmaydimi? Davlatimiz rahbari kinoijodkorlarga har safar katta ishonch bildiradi. Ular chin ma'noda kelajak avlod tarbiyachisi ekanini bot-bot ta'kidlaydi.

Aytgancha, "Otam va o'g'lim"dagi Denis ismli bola o'z rolini shunaqangi qotirib qo'yganki, uning mahoratiga qoyil qolasiz. Ko'rib kino emas, hayotiy hikoya tomosha qilayotganga o'xshaysiz. Tushunyapsizmi? U, adashmasam, endi yetti yoshda. Fikri yoshiga nisbatan juda teran. Fe'l-atvorida chin mard inson shakllanayotganini ko'rish mumkin. Falsafa bor. Film so'ngida kasallikdan halok bo'lgan ota-bola o'rtasida bo'lgan dialogdan bir parcha:

– Sen ulg'ayapsan.

– Odam ulg'aysa, orzulari kamayadimi?

– ...Balki, qolgan uchrashuvlarimiz hozirgidek haqiqiy bo'lmas. Chunki o'sha uchrashuvlar o'z xayollarning ekanini tushunasam...

– Bu ulg'ayish deganimi?

– Ha, o'g'lim, bu ulg'ayish degani.

– Katta bo'lishni xohlamayman...

Ana sizga kinoijodkorlarning aniq maqsadi.

So'zim oxirida shu jumlaning men ham takrorlagim keldi: "Katta bo'lishni xohlamayman". Zotan, bolaligimni asrab kelayotgan, chang ko'chalarda mudom yashab, o'ynab yurgan "Suyunchi", "Shum bola" va "Mahallada duv-duv gap"larni hech kim tortib olmasin. Boisi haqiqiy kino qalblarda mangu yashaydi.

Milliy kurash

“MUDOFAA VAZIRI KUBOGI” G‘OLIBI ANIQLANDI



Mudofaa vazirligi sport markazida milliy sport turi – kurash bo‘yicha “Mudofaa vaziri kubogi” uchun musobaqa yuqori saviyada va ko‘tarinki ruhda tashkil etildi. Ushbu nufuzli sport tadbiri harbiy xizmatchilarning jismoniy tayyorgarligini oshirish, ular o‘rtasida sog‘lom raqobat muhitini shakllantirish hamda milliy qadriyatlarimizni targ‘ib etishga xizmat qildi.

Kurash o‘zbek xalqining eng qadimiy va sharafli sport turlaridan biri hisoblanadi. Uning tarixi ming yilliklarga borib taqaladi. Qadimdan kurash nafaqat xalq bayramlari va sayillarda, balki harbiylar o‘rtasida ham muhim ahamiyat kasb etgan. Xususan, buyuk sarkarda Amir Temur davrida qo‘shinlar o‘rtasida jismoniy tayyorgarlikni oshirish maqsadida kurash musobaqalari muntazam ravishda o‘tkazib kelingan. Bu bellashuvlar jangchilarning chidamliligi, epcilligi va jasoratini sinovdan o‘tkazishda muhim vosita bo‘lgan.

Tarixiy manbalarda qayd etilishicha, buyuk sarkarda Amir Temur o‘z qo‘shinlarining jismoniy va ma‘naviy tayyorgarligiga alohida e‘tibor qaratgan. Shu bois kurash, ot sporti va boshqa jismoniy mashqlar harbiy tayyorgarlikning ajralmas qismi sifatida qaralgan. Bu an‘ana bugungi kunda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan holda davom ettirilmoqda.

Ayniqsa, Navro‘z bayrami yangilanish, ezgulik va tabiat uyg‘onishining timsoli sifatida



azaldan kurash musobaqalari bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib kelgan. Bayram sayillarida polvonlar bellashuvi xalqni birlashtirgan, yoshlarni baquvvat va matonatli bo‘lishga chorlagan. Bugungi kunda ham ushbu an‘analar zamonaviy shaklda davom ettirilib, milliy sport turlariga bo‘lgan qiziqishni yanada oshirmoqda.

Joriy musobaqada vazirlik qo‘shinlari tarkibida xizmat qilayotgan harbiy xizmatchilar 8 ta vazn toifasida o‘zaro bellashdi. Har bir bellashuv murosasiz va shiddatli kechib, ishtirokchilar o‘zining yuqori darajadagi jismoniy tayyorgarligi, chidamliligi va mahoratini namoyon etdi. Musobaqaning adolatli va shaffof o‘tishiga alohida e‘tibor qaratildi. Shu maqsadda milliy

kurash federatsiyasining malakali mutaxassislari hakam sifatida jalb etildi va barcha bellashuvlar xolisona baholandi.

Qizg‘in va murosasiz kechgan bellashuvlar yakuniga ko‘ra, umumjamo‘a hisobida Markaziy harbiy okrug jamoasi 1-o‘rinni egalladi. Toshkent harbiy okrug jamoasi 2-o‘rinni qo‘lga kiritdi. Janubi-g‘arbiy maxsus harbiy okrug jamoasi esa 3-o‘ringa sazovor bo‘ldi. G‘olib va sovrindorlar diplom, medal hamda “Mudofaa vaziri kubogi” bilan taqdirlandi.

– Mudofaa vazirligi qo‘shinlari miqyosida o‘tkazilayotgan kurash musobaqasi harbiy xizmatchilarning nafaqat jismoniy tayyorgarligini, balki jangovar salohiyatini ham kuchaytirishda muhim rol o‘ynaydi,

– deydi polkovnik Avaz Azimov. – Kurash jismoniy quvvat, tezkorlik, muvozanat hamda to‘siqlarni yengib o‘tish kabi muhim ko‘nikmalarni rivojlantiradi. Bunday musobaqalar ishtirokchilar irodasini toblaydi, ularning stressga chidamliligi va jamoaviylik hissinin kuchaytirishi bilan ham alohida o‘rin tutadi. Kurash harbiy xizmatchilarda murakkab vaziyatlarda tez va samarali qaror qabul qilish qobiliyatini rivojlantirish bilan birga ularning jangovar tayyorgarligini ham oshiradi. Shuningdek, Navro‘z bayrami arafasida harbiy xizmatchilar va ularning oila a‘zolari ishtirokida do‘stona sport musobaqalari ham tashkil etildi. Unda darts, arqon tortish, kamondan otish, minifutbol, tosh ko‘tarish, shashka va shaxmat kabi turli yo‘nalishlarda bellashuvlar bo‘lib o‘tdi.

Mazkur musobaqalar do‘stlik va hamjihatlik ruhida o‘tdi. Oila a‘zolarining ishtirok etishi tadbirga yanada samimiylilik bag‘ishlab, harbiy xizmatchilar o‘rtasida birdamlikni mustahkamladi.

Tadbir yakunida g‘olib va sovrindorlar munosib ravishda taqdirlandi. Shu bilan birga, musobaqada ishtirok etgan barcha bolajonlarga esdalik sovg‘alar topshirilib, ularning qalbida unutilmas taassurotlar qoldirdi.

Xulosa qilib aytganda, bunday tadbirlar milliy kurash an‘analarini asrab-avaylash, Navro‘z qadriyatlarini keng targ‘ib qilish hamda harbiy xizmatchilarning jismoniy va ma‘naviy salohiyatini yuksaltirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Bu esa, o‘z navbatida, sog‘lom, baquvvat va vatanparvar avlodni tarbiyalashga xizmat qiladi.

Sherzod SHARIPOV,
“Vatanparvar”

Inson qadri



Surat sun'iy intellekt yordamida tayyorlandi

DERAZA ORTIDAGI mitti qalb

Ayniqsa, deraza ortida turib onasini kutgan mitti qalb uchun bir kun ham ba'zan juda uzoq tuyuladi. ...Qizimni bir oyga bobo-buvisiga qoldirdim.

Har kuni telefonlashamiz. Gaplashamiz. Videoxabar orqali diydorlashamiz. U meni ko'radi, men uni ko'raman. Go'yo barchasi joyidagidek.

Ammo baribir nimadir yetishmaydi.

Chunki bola faqat ovoz emas. Bola – totli ifor. Bola – bag'ringga bosh qo'yib uxlaydigan ilqlik. Bola – qo'lingdan ushlab, "ayajon" deb erkalab qo'yadigan mehr. Onasi ekanman-da...

Qizim ham meni qo'msaydi. Bag'rimda yotgisi keladi. Qo'llarimdan o'pgisi keladi. Erkalik qilgisi, menga rasm chizib bergisi keladi.

Biz bir-birimizga shu qadar ichikib qolganmizki, qani endi qanotim bo'lsa-yu, ucholsam! Axir o'rtada Nukusdan vodiyygacha bo'lgan uzoq masofa turibdi.

Ichimdagi sog'inchi ba'zan sababsiz urushga aylanadi. Qizimning dadasi bilan tortishib ketaman. Ko'nglim yorishmaydi.

Qizim esa u yoqda... kechalari tushida meni ko'rarkan. Har kun dadam opichlab yurishini aytar,

qizimning holatidan xabar berardi. Bir kuni qizim yig'lab uyg'onibdi. Shundan so'ng "Ayam poyezdda kelyapti", deb derazaga termilib kutadigan bo'libdi. Mening esa ishim tugay, demaydi...

Shunday kunlarning birida yonimda yurgan bir askardan so'radim:

– Uydagilarga xat yozyapsanmi?

U jilmaydi.

– Zozyapman. Bobomga, buvinga.

– Ayangga-chi?

Dadangga?

Uning kulgisi birzumda ma'yus tortdi.

– Meni tashlab ketishgan...

Shu bir og'iz gap yuragimni zirqiraytib yubordi. Yuzida hali bolalik izlari bor, shiringina yigitni tashlab ketishgan...

Ota-onasi ajrashib ketgan ekan. Uni begona odamlar bag'riga olib katta qilibdi. Endi u askar. Shimol sarhadlarida muddatli harbiy xizmatni o'tamoqda.

Uni oq yuvib, oq tarab katta qilgan, yetmishga yaqinlashib qolgan momosi bor. U askar bo'lib yurib, ana shu momosiga sog'inchli xatlar yozadi.

Mening xayolga cho'mganimni sezgan shekilli, u sekin dedi:

– Opa, hammasi joyida. Xijolat bo'lmang.

Ko'zlariga qaradim. Mungli ko'zlaridan baxtni qidirdim. Va topdim. Ha, u baxtli edi.

Momosidan xat kelgan ekan. Xatda shunday yozilgan ekan:

"O'zingni ehtiyot qil, bolam".

– Qizingiz ham momosidami? – deb so'radi u.

– Ha. Biroz tobi qochgan edi, havo almashtirsin, dedi doktorlar... Shunga...

O'zimni aybdor his qilardim, bolamning mazasi yo'q, men esa bolamni tashlab keldim, ammo ishni tashlab ketolmagandim.

– Yoshligim esimga tushib ketdi, – dedi askar xayollarga cho'mib.

– Askar, bir savol bersam, xafa bo'lmaysanmi?

– Yo'q.

– Ayangni sog'inganmisan?

U jim qoldi. So'ng sekin gapirdi:

– Sog'inganman... Har kuni sog'inganman. Keladi deb o'ylardim. Bir kun meni olib ketadi deb ishonardim...

Biroz jim turib yana davom etdi:

– Lekin qaytmadi... Men ulg'aydim. Sog'inchi ham asta-sekin unutildi...

U shunday dedi.

Ammo men ishonmadim. Chunki bolalik sog'inchi unutilmaydi. U faqat yurakning eng chuqur joyiga tushib ketadi. U yerda esa u sukutga aylanadi.

Askarning ovozi baland emas edi. Ammo uning sokin ovozidagi o'kirik qulog'imni kar qildi, ko'zlarimga achchiq yosh qalqdi.

Uning ko'zlariga ortiq qaray olmadim. Sekingina oldidan ketdim.

Poyezdga chipta olishga shoshyapman. Bolamning oldiga. Chunki bitta haqiqatni tushunib yetgandim: bola onasini kutishdan charchamaydi. U kutadi, kutaveradi.

Ishongani uchun kutadi. Har bir eshik ovoziga yugurib chiqadi. Har bir qadamda "ayam keladi" deb umid qiladi. Lekin ba'zi bolalar kutib-kutib ulg'ayib ketadi. Shunda ular "sog'inchi unutildi" deb o'ylaydi. Aslida sog'inchi hech qachon unutilmaydi. U faqat yurakdagi eng og'ir jimlikka aylanadi.

Poyezdga shoshyapman. Bolamning oldiga. Deraza ortida mittigina bir qalb meni kutyapti. U qalb hali ishonadi. Hali umid qiladi. Va men uni kutib qoladigan bolalar safiga qo'shib qo'ygim kelmadi.

Aziz ota-onalar, siz ham shunday qilingki, farzandingiz sizni kutib yashamasin!

**Shohista
ABDURAHMONOVA,
jurnalist**

Qisqa hikoyalar



ARSLON

Sher bolasi o'rmonda tug'ildi. Bir gal behush bo'lib, ko'zini ochdi-yu, o'zini hayvonot bog'ining temir panjarali tosh qafasida ko'rdi. Otasining beliga, keng o'rmonga sig'magan arslon tor qafasga sig'armidi? Qochdi. Uni izlay boshladilar. Endi u yer-ko'kka sig'mayotgandi.

U qishlog'imizga kelgan ekan. Odamlarning ko'ziga tashlanib, hayvonot bog'i ma'muriyati bundan xabar topdi. U qirdagi hovlimizga keldi. Ta'qibchilar bu yerning-da daragini topishdi. Dunyoga sig'magan arslon

torgina uyimga sig'di. Lekin hademay bu yerga ham kelishdi.

Eshik taqilladi. Arslon qochadigan boshqa joy qolmagandi. Shunda...

Ta'qibchilar uyimni tintib, arslon tugul, kuchukvachcha ham topolmadilar.

– Yolg'on xabar berishibdi! – deya so'kinishdi.

Arslonni hech qayerdan topisholmadi. Topolmaydiyam-da! Chunki...

Men arslonni yuragimga bekitgandim...



UYG'ONISH

U ishxonasi tomon ohista o'tlanarkan, boshi uzra jilolanayotgan quyoshga tashakkur degisi keldi. Axir, ana shu oftob butun borliqni o'zining iliq nurlari bilan uyg'otadi. Keyin o'yga cho'mdi: "Ayol ham quyoshga o'xshaydi-ya!" O'tmishi ko'z o'ngida birma-bir jonlandi.

U go'dak edi. Bir mehribon ayol uni

tongda uyg'otardi:

– Tur, bolaginam, bog'changga kech qolyapmiz!

U bola edi.

Bir munis ayol tonglari uni uyg'otar edi:

– Tur, bolam,

maktabingga kechikasan!

U yigit edi.

Bir mushtipar

ayol uni ertalablari

uyg'otardi:

– Uyg'on, o'g'lim, o'qishingga kechikaysan!

U erkak bo'ldi.

Sahar uni bir go'zal ayol uyg'otdi:

– Turing, dadasi,

ishingizga kech qolyapsiz!

"Ha, – dedi u shivirlab,

– erkakni uyg'otgani

uchun ham ayolga

tashakkur!"

Mansur JUMAYEV

Rahbar va yoshlar

O'zbekiston Respublikasi mudofaasiga ko'maklashuvchi "Vatanparvar" tashkiloti Buxoro viloyati kengashida "Rahbar va yoshlar" uchrashuvi tashkil etildi.



YOSHLAR BILAN MULOQOT

"Yoshlar kuni" munosabati bilan o'tkazilgan tadbir boshida tashkilotning Buxoro viloyati kengashi raisi Rustam Bayozov umumiy o'rta hamda professional ta'lim muassasalari o'quvchilariga "Vatanparvar" tashkiloti tomonidan aholi, ayniqsa, yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, ular orasida sportning texnik va amaliy turlarini ommalashtirish, mehnat bozorida talab yuqori bo'lgan kasb mutaxassislarini tayyorlash bo'yicha olib borilayotgan ishlar to'g'risida ma'lumotlar berdi. Namoyish etilgan videolavhalar yoshlarda tashkilot faoliyati to'g'risidagi tasavvurlarining oshishiga xizmat qildi.

Tadbirda qatnashgan Ma'naviyat va ma'rifat markazi viloyat bo'limi rahbari Zubaydullo Sharipov, O'zbekiston yoshlar ittifoqi viloyat kengashi bo'limi boshlig'i Erkin Sharopov, viloyat yoshlar ishlari boshqarmasi bosh mutaxassisi Nurilbek Rajabov viloyatda turli sohalarida yoshlar uchun yaratilayotgan imkoniyatlar va imtiyozlar to'g'risida ma'lumot berdilar.

Ishtirokchilarning 8 nafari "Vatanparvar" tashkiloti sport seksiyalariga, 5 nafari tashkilot a'zolariga qabul qilindi.

Tadbir qizg'in savol-javoblar bilan o'tdi. Aksariyat yoshlarning murojaatlari joyida ijobiy yechim topdi.

Tashrif buyuruvchilarda, ayniqsa, tashkilotning o'quv avtodromi va zamonaviy avtomobillari hamda "Motokross", "Karting", "Triatlon", "Biatlon", "Pnevmatik quroldan o'q otish", "Raketamodel", "Aviamodel" va "Kemamodel" bo'yicha sport seksiyalari ko'rgazmalari unutilmas taassurot qoldirdi.

Shuningdek, Milliy gvardiyaning Toshkent shahridagi "Temurbeklar maktabi" harbiy-akademik litseyida o'tkazilgan "Rahbar va yoshlar" uchrashuvida "Vatanparvar" tashkiloti Toshkent shahri kengashi raisi Sanjarbek Esamuratov o'quvchilarga tashkilot faoliyati to'g'risida ma'lumot berdi. Litsey o'quv jarayonlarida va harbiy-vatanparvarlik tadbirlarida faollik ko'rsatayotgan bir qator o'quvchilar "Vatanparvar" tashkilotining faxriy yo'riqlari bilan taqdirlandi.

Avtokross

JIZZAXDA MOHIR AVTOKROSS SPORTCHILARI SARALANDI



Jizzax shahrida joylashgan "Navro'zbuloq" poygagohida O'zbekiston Respublikasi mudofaasiga ko'maklashuvchi "Vatanparvar" tashkiloti tomonidan avtokross bo'yicha O'zbekiston kubogining ikkinchi bosqich musobaqasi o'tkazildi.

Respublikamizning turli hududlaridan qatnashgan 70 ga yaqin sportchilar "NU" (Milliy), "A-7", "A-8", "Baggi" sinflarida sport avtomobillarida belgilangan masofalarni bosib o'tib, marra sari harakatlandilar.

Qizg'in va murossasiz kechgan ekstremal musobaqa quyidagi natijalar bilan yakunlandi:

"A-7" sinfida 1-o'rin Javohir Toshpo'latov (Jizzax v.), 2-o'rin Sarvar Tojiqulov (Andijon v.), 3-o'ringa Sardor To'ychiyev (Andijon v.)ga nasib etdi.

"A-8" sinfida 1-o'rinni Nikolay Sayev (Jizzax v.), 2-o'rinni Faridun Murodillayev (Samarqand v.), 3-o'rinni Sarvar Tojiqulov (Andijon v.) qo'lga kiritdi.

"NU" (Milliy) sinfida 1-o'ringa Samandar Xusanov (Jizzax v.), 2-o'ringa Furqat Ahrorqulov (Jizzax v.), 3-o'ringa O'tkirjon Po'latov (Samarqand v.) munosib deb topildi.

"Baggi" sinfida 1-o'rinni Mirzajon Rahmatov (Samarqand v.), 2-o'rinni G'ayrat Odilov (Jizzax v.), 3-o'rinni Xurshid G'aniyev (Jizzax v.) egalladi.

Umumjamo'a hisobida 1-o'ringa Jizzax viloyati, 2-o'ringa Samarqand viloyati, 3-o'ringa Jizzax viloyatining "Best club" jamoalari sazovor bo'ldi.

G'oliblikni va yuqori o'rinlarni qo'lga kiritgan sportchilar "Vatanparvar" tashkilotining diplom va kuboklari bilan taqdirlandilar.

O'zbekiston Respublikasi mudofaasiga ko'maklashuvchi "Vatanparvar" tashkiloti

Ekskursiya

OCHIQ ESHIKLAR KUNI

Joriy yilning 24-fevral kuni Prezidentimizning mamlakatimiz yoshlari bilan uchrashuvida har haftaning payshanbasi "Yoshlar kuni" etib belgilandi. Shu munosabat bilan yurtimizda yoshlar bilan muloqot qilish, ularning taklif va tashabbuslarini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan qator tadbirlar izchil amalga oshirilmoqda.

Mana shunday tadbirlardan biri O'zbekiston Respublikasi Harbiy prokuraturasida "Ochiq eshiklar kuni" tarzida tashkil etildi. Unda Jamoat xavfsizligi universiteti kursantlaridan bir guruhi ishtirok etdi.

Dastlab o'tkazilgan ochiq muloqotda so'z olganlar yoshlarga bo'lgan alohida e'tibor, shuningdek vatanparvarlik, el-yurtga sadoqat, Konstitutsiya va qonunlarga hurmat, zamonaviy bilimlarni puxta egallashning ahamiyati, tashabbuskorlik hamda xalqimiz taqdiri va Vatanimiz taraqqiyotiga daxldorlik tuyg'usining mohiyati haqida atroflicha to'xtalib o'tdilar.

Tadbirding navbatdagi qismida ishtirokchilar "O'zbekiston Respublikasi Harbiy prokuraturasi tarixi muzeyi", "Tergov poligoni", elektron o'q otish tayyorgarligi o'quv xonasi, "Ma'naviyat burchagi" va xodimlarga yaratilgan sharoitlar bilan yaqindan tanishdi.

Harbiy prokuraturada o'tgan ochiq eshiklar kuni yoshlarda katta taassurot qoldirdi.

Adliya mayori Sirojiddin CHORIYEV,
Respublika Harbiy prokuraturasi bo'lim katta harbiy prokurori

Bellashuv

KO'RIK-TANLOVLAR

O'zbekiston Respublikasi Harbiy prokuraturasi tomonidan yoshlarning bo'sh vaqtini to'g'ri yo'naltirish hamda samarali va mazmunli o'tkazish maqsadida "Navro'z" umumxalq bayrami munosabati bilan qator tadbirlar va turli tanlovlar tashkil etildi.

Poytaxtimizning Bektemir tumanidagi 337-maktabda "Yangi O'zbekistonning vatanparvar yoshlari" mavzusida o'tkazilgan ko'rik-tanlov ham shular jumlasidan. Unda o'quvchilar turli shartlar bo'yicha o'zaro bellashdi. Asosiy har bir ishtirokchi o'z chiqishi orqali Vatanga bo'lgan muhabbatini to'la namoyon eta oldi.

Yakunda g'oliblarga va faol qatnashchilarga maxsus sovg'alar tantanali ravishda topshirildi.

Shu kabi 289-ixtisoslashtirilgan davlat umumta'lim maktabida yuqori sinf o'quvchilari o'rtasida "Matematika bilimdoni" tanlovi o'tkazildi.

Natijalarga ko'ra, Murod Sultonmurodov 1-o'rin, Abdurahmon Asimov 2-o'rin va Begzod Safarov 3-o'rinni egalladi. Tanlov so'ngida sovrindorlar munosib taqdirlandi.

Adliya polkovnigi Shuhrat ZOIROV,
Chirchiq harbiy prokurorining yordamchisi

Davra suhbat

UCH AVLOD UCHRASHUVI

Mamlakatimizning barcha shahar va tumanlarida "Navro'zni ulug'lash insonni ulug'lashdir!" degan ezgu g'oyani o'zida mujassam etgan madaniy-ma'naviy hamda targ'ibot tadbirlari, bayram sayillari ko'tarinki ruhda tashkil etildi.

Shu kabi O'zbekiston Respublikasi Harbiy prokuraturasida "Uch avlod uchrashuvi" bo'lib o'tdi. Unda O'zbekiston prokuratura organlari faxriylarini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash jamoatchilik markazi raisi B. Kalonov, harbiy prokuratura faxriylari, joylardagi studiyalardan hududiy harbiy prokuraturalarning barcha xodimlari ishtirok etdi.

Tadbirda Bosh prokuror o'rinbosari - O'zbekiston Respublikasi Harbiy prokurori O. Xolboyev ochib, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurorining bayram tabrigini o'qib eshittirdi.

Shuningdek, so'z olganlar tomonidan Prezidentimizning xalqchil siyosati natijasida yurtimizda olib borilayotgan va jadal davom etayotgan keng qamrovli islohotlar, barqaror tinchlik va farovonlik ne'mati, dunyo miqyosida kun sayin yuksalib borayotgan Vatanimiz nufuzi va erishilgan ulkan yutuqlar, xodimlarga, faxriylarga va xotin-qizlarga ko'rsatilayotgan alohida e'tibor e'tirof etildi.

Tadbir davomida Bosh prokuror buyrug'iga asosan harbiy prokuratura faxriylaridan F. Omonov, S. Rasulov va F. Begashevga "O'zbekiston

Respublikasi prokuraturasining faxriy xodimi" hamda S. Yakubovga "Fidoyi murabbiy" ko'krak nishonlari tantanali ravishda topshirildi.

Bundan tashqari, tizimdagi kasbiy tanlovning 2025-yil yakunlariga ko'ra, "Yilning eng yaxshi prokurori", "Yilning eng yaxshi davlat ayblovchisi" va "Yilning eng yaxshi tergovchisi" nominatsiyalari bo'yicha g'olib va sovrindorlar taqdirlandi.

Adliya polkovnigi Botir SOBIROV,
O'zbekiston Respublikasi Harbiy prokurorining katta yordamchisi

Vatanparvarlik ruhi

TADBIRLAR DAVOM ETMOQDA

Navro'z bayrami munosabati bilan Toshkent harbiy prokuraturasi tomonidan Toshkent harbiy okrugi qo'shinlari qo'mondonligi va boshqa kuch tuzilmalari bilan hamkorlikda Toshkent viloyati Ohangaron tumanining Susam, Go'shsoy, Sanam va Nishbosh mahallalari yoshlari ishtirokida vatanparvarlik tadbiri o'tkazildi.

Tumandagi 33-maktabda o'tgan sayil yoshlarda katta qiziqish uyg'otdi.

Shu kabi poytaxtimizning Bektemir tumanidagi Chashma mahallasida vatanparvarlik tadbiri o'tkazildi.

Harbiy xizmatchilarning ko'rgazmali chiqishlari, harbiy aslahalar namoyishi hamda Qurolli Kuchlar Markaziy ashula va raqs ansambli jamoasining vatanparvarlikni tarannum etuvchi maxsus

konsert dasturi barchada katta taassurot qoldirdi.

Bundan tashqari, harbiy qism va muassasalarda profilaktik tadbirlar izchil davom ettirilmoqda.

Jumladan, Toshkent shahri Milliy gvardiya boshqarmasi shaxsiy tarkibi ishtirokida "Kiberjinoyatlar va uning oqibatlari hamda oldini olish choralari" mavzusida ochiq muloqot o'tkazildi.

Jarayonda bu turdagi huquqbuzarliklar uchun qonunchilikda belgilangan javobgarlik choralari, ularning oldini olish borasidagi vazifalar haqida ma'lumotlar berildi.

Tadbir yakunida mavzu yuzasidan videolavha namoyish etildi.

Adliya polkovnigi Shohrux VAHOBOV,
Toshkent harbiy prokurorining o'rinbosari

QIZAMIQ HAMMAGA YUQISHI MUMKIN!

Qizamiq havo-tomchi (aerozol) orqali yuqadigan o'ta yuqumli, virusli kasallikdir. Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti (JSST) ma'lumotlariga ko'ra, Yevropa va Markaziy Osiyoda 2024-yilda 127 412 ta holat, 2025-yilda esa 33 998 holatda qizamiq bilan kasallanish qayd etilgan bo'lib, kasallikning kamayishi kuzatilgan, ammo yangi hududlarda tarqalish xavfi saqlanib qolgan.



Surat sun'iy intellekt yordamida tayyorlandi

Qizamiq virusi nafas yo'llariga tushgach, organizm bo'ylab tarqaladi. Kasallik asosan yo'tal, aksirish, gaplashish vaqtida havoga chiqqan mayda aerozol zarrachalari orqali yuqadi. JSST ma'lumotlarida virus havoda yoki tashqi muhit obyektlarida 2 soatgacha faolligini saqlab qolishi, shu sababli bemor xonadan chiqib ketganidan keyin ham yuqish xavfi mavjudligi, yopiq inshootlarda bir nafar bemor qisqa vaqt ichida butun jamoaga kasallikni yuqtirishi mumkinligi keltirilgan.

Kasallikning yashirin davri, ya'ni belgilari yuzaga kelmagan davr o'rtacha 7-21 kun davom etadi. Shundan so'ng 2-4 kun ichida yuqori harorat, yo'tal, tumov, konyunktivit (ko'zlarni qoplab turuvchi pardaning yallig'lanishi), terida dog'lar paydo bo'lishi mumkin. Toshma toshishi odatda, yuzdan boshlanib, tananing pastki qismiga tushadi va 5-6 kunga cho'ziladi.

KASALLIK QACHON YUQADI?

Bemor toshma toshishidan 4 kun oldin va toshma toshishi boshlanganidan 4 kundan keyin yuqumli hisoblanadi. Toshma chiqishini kutmasdan, yuqori

harorat, yo'tal, tumov, ko'z qizarishi kabi belgilar paydo bo'lsa, shubha bilan qarash va tibbiyot xizmatiga tez murojaat qilish zarur. Umuman olganda, qizamiq tibbiyotda eng yuqumli infeksiyalardan biri sifatida baholanadi. Mutaxassislar ma'lumotiga ko'ra, bir nafar bemor emlanmagan 10 nafar odamdanda 9 nafariga virusni yuqtirishi mumkin. Bu ko'rsatkich kasallikning jamoalarda nega shiddat bilan tarqalishini yaqqol tushuntiradi.

Kasallik klinik belgilar asosida gumon qilinadi. Laborator tasdiq uchun qonda maxsus antitanachalar (IgM) aniqlanadi yoki virusning genetik materiali tekshiriladi. Bu epidemiologik nazorat uchun juda muhim.

NEGA QIZAMIQ ODDIY TOSHMA EMAS?

Qizamiq ba'zi odamlarda og'ir kechib, shifoxonaga yotqizishgacha olib keladi. Asosiy xavf – asoratlari: pnevmoniya (zotiljam), otit (quloqning yallig'lanishi), diareya (ich ketishi), hiqildoq, kekirdak va bronxlarning bir vaqtda yallig'lanishi, kam hollarda ensefalit (miya yallig'lanishi) va boshqa og'ir oqibatlariga sabab bo'ladi.

Shuningdek, qizamiq infeksiyasi immun tizimini ma'lum muddat zaiflashtirishi va boshqa infeksiyalar bilan kasallanishga moyillikni oshirishi mumkin.

QAYSI TOIFADAGILAR XAVF GURUHIGA KIRADI?

Quyidagilar yuqori xavf guruhiga kiradi:

- emlanmagan bolalar va kattalar;
- homilador ayollar;
- immun tizimi zaif shaxslar;
- A vitamini tanqisligi bor bolalar.

Ayniqsa, 5 yoshgacha bo'lgan bolalarda asoratlari og'ir kechishi ehtimoli yuqori.

EMLASH – ENG ISHONCHLI HIMOYA!

1 doza qizamiqqa qarshi vaksinaning samaradorligi taxminan 93 foiz, 2 doza esa taxminan 97 foizni tashkil qiladi. Jamoaviy himoya uchun qamrov yuqori bo'lishi zarur, ko'pchilik manbalarda 95 foiz atrofida emlash qamrovi kerakligi ta'kidlanadi. Har bir inson o'zining emlash hujjatlariga aniqlik kiritib qo'yishi maqsadga muvofiq, emlash holati noma'lum bo'lsa, tibbiyot xizmatiga murojaat qilish lozim.


Kasallik tarqalishi va asoratlarning yuzaga kelishiga qarshi chora-tadbirlar:

- harbiy jamoaga yangi kelganlarning emlash holatiga zudlik bilan aniqlik kiritish;
- har kuni qisqa so'rab-surishtirish o'tkazish: isitma, yo'tal, tumov, ko'z qizarishi bor-yo'qligi;
- yotoqxona va o'quv xonalarida shamollatish tartibi va tozalikni saqlash uchun mas'ullarni tayinlash (ayniqsa, mashg'ulotlardan keyin);
- kasallikning dastlabki belgilari mavjud bo'lgan holatlarni yashirmaslik va tibbiyot xizmatiga murojaat qilish;
- o'zboshimchalik bilan dori vositalarini (antibiotik, vitamin) qabul qilmaslik;
- "Ko'rding – alohida – xabar ber – tekshir – himoyalani!" amaliy algoritimiga rioya etish;
- "shamollash" belgilariga e'tiborsizlik qilmasdan (yuqori harorat, yo'tal, tumov, ko'z qizarishi) xavf signali deb baholash.

Ko'p uchraydigan xatolar:

- kasallik alomatlarini yashirish yoki "o'tib ketadi" deb xizmatni davom ettirish;
 - o'zboshimchalik bilan antibiotik, vitamin, dorilar qabul qilish;
 - tibbiyot xizmatiga murojaat qilmaslik;
 - xonalarni yetarlicha shamollatmaslik va tozalikka rioya qilmaslik;
 - kasallikka qarshi emlanmaslik yoki emlash ishlariga befarqlik bilan qarash.
- Xulosa qilib aytganda, qizamiqqa qarshi eng ishonchli himoya – emlash, eng to'g'ri tadbir esa erta aniqlash va alohidalashdir. Bo'linmalarda xavfni kamaytirish uchun mas'ullar bir xil intizomga amal qilishi zarur. "Ko'rding – alohida – xabar ber – tekshir – himoyalani!" tamoyiliga qat'iy rioya qilish bo'linmaning jangovar shayligi va shaxsiy tarkib salomatligini saqlashning eng samarali yo'lidir.

Tibbiy xizmat polkovnigi
J. QUTLIYEV,
Harbiy tibbiyot instituti kafedra
boshlig'i, dotsent, DSc.
Tibbiy xizmat mayori
E. BEKKAMOV,
tinglovchi



Salomatlik

TO'RT OMIL – SOG'LOM TURMUSH GAROVI

Amerika tibbiyot assotsiatsiyasi tarmog'iga kiruvchi "Archives of Internal Medicine" jurnalida e'lon qilingan hisobotga ko'ra, sog'lom turmush tarzining to'rtta omili – chekishni tashlash, sog'lom vazni saqlash, muntazam jismoniy mashqlar va sog'lom ovqatlanish – birgalikda eng keng tarqalgan va o'limga olib keladigan surunkali kasalliklarning rivojlanish xavfini 80 foizga kamaytiradi.



Surat sun'iy intellekt yordamida tayyorlandi

Maqolada keltirilgan ma'lumotlarga ko'ra, yurak-qontomir kasalliklari, rak va qandli diabet surunkali kasalliklar bo'lib, ular o'lim holatlarining katta qismiga sabab bo'ladi. Shu bilan birga, bu kasalliklarning katta qismining oldini olish mumkin. Mualliflar ta'kidlashicha, "Ko'plab tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, chekish, jismoniy faollik, parhez va tana vazni singari o'zgartirish mumkin bo'lgan turmush tarzi omillari – bu kasalliklarning kelib chiqishida muhim rol o'ynaydi".

Ushbu omillar bilan bog'liq xavfning kamayishini batafsilroq o'rganish uchun Atlantadagi kasalliklarni nazorat qilish va oldini olish markazi xodimi, tibbiyot fanlari doktori, jamoat salomatligi magistri Erl S. Ford o'z hamkasblari bilan birga 35 yoshdan 65 yoshgacha bo'lgan 23 513 nafar nemis fuqarosining ma'lumotlarini tahlil qildi. 1994–1998-yillar oralig'ida o'tkazilgan Potsdandagi saraton va ovqatlanish bo'yicha Yevropa istiqbolli tadqiqoti (EPIC-Potsdam) boshida ishtirokchilarning vazni va bo'yi o'lchandi, ular bilan kasalliklarga oid savollarni o'z ichiga olgan shaxsiy suhbat o'tkazildi, shuningdek ishtirokchilar ijtimoiy-demografik xususiyatlari, turmush tarzi va oziq-ovqat iste'moli chastotasi bo'yicha so'rovnomalarni to'ldirdilar. Ularning javoblari

sog'lom turmush tarzining to'rtta omiliga qay darajada mos kelishi bo'yicha baholandi: chekmaslik, tana vazni indeksi 30 dan past bo'lishi, haftasiga kamida uch yarim soat jismoniy mashq qilish va sog'lom ovqatlanish qoidalariga rioya etish. Keyingi kuzatuv anketalari har 2-3 yilda to'ldirib borildi.

Aksariyat ishtirokchilarda bu sog'liq omillaridan har bittadan uchta uchta kuzatildi. 4 foizdan kamrog'ida bitta ham sog'liq omili aniqlanmagan bo'lsa, 9 foizida barcha to'rtta omil mavjud edi. O'rtacha 7,8 yillik kuzatuv davri mobaynida 2 006 nafar ishtirokchida yangi kasallanish holatlari aniqlangan. Jumladan, diabet – 3,7 foiz, miokard infarkti – 0,9 foiz, insult – 0,8 foiz hamda saraton – 3,8 foiz holatlarda qayd etilgan.

Yosh, jins, ma'lumot darajasi va kasb kabi omillar hisobga olinib tahrirlanganda, sog'lom turmush tarziga ega bo'lgan odamlarda surunkali kasalliklar rivojlanish ehtimoli kamroq ekani aniqlandi. Tadqiqot boshida to'rtta sog'lom turmush tarzi faktori ham mavjud bo'lgan ishtirokchilar, birorta ham faktorga ega bo'lmaganiga nisbatan kuzatuv davri mobaynida har qanday surunkali kasallik rivojlanish xavfini 78 foizga kamaytirgan.

To'rtta faktorning ta'siri quyidagicha bo'lgan: qandli diabet rivojlanish xavfi – 93 foizga, miokard infarkti xavfi – 81 foizga, insult xavfi – 50 foizga, saraton xavfi – 36 foizga kamaygan.

Xavfning eng sezilarli darajada pasayishi tana massasi indeksi 30 dan kam bo'lgan kishilarda kuzatilgan. Ulardan keyingi o'rinlarni chekmaslik, haftasiga kamida 3,5 soat jismoniy faollik va sog'lom ovqatlanishga rioya qilish egallagan.

"Bizning natijalarimiz jamoat salomatligi sohasidagi amaldagi tavsiyalarni tasdiqlaydi, ular chekmaslik, sog'lom vazni saqlash, jismoniy faoliyat bilan oqilona shug'ullanish, yetarli miqdorda mevalar, sabzavotlar va butun don mahsulotlarini iste'mol qilish hamda qizil go'sht miqdorini me'yorda saqlashni tavsiya qiladi", deb yozadi mualliflar.

Chunki ushbu omillarning ko'pchiligi shaxsiyat shakllanishi jarayonining ilk bosqichlarida paydo bo'lishi mumkin, shu bois sog'lom turmush tarziga oid muhim darslarni farzandlarimizga, shaxsiy tarkibga erta davrda o'rgatish alohida ahamiyatga ega.

**Tibbiy xizmat podpolkovnigi
Jamoliddin ABDUSAMATOV,
Harbiy xavfsizlik va
mudofaa universiteti
Harbiy tibbiyot instituti kafedra
boshlig'i, PhD**



MUASSIS
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
MUDOFAA VAZIRLIGI

VATANPARVAR



Tahririyat kengashi:

general-mayor Hamdam Qarshiyev
podpolkovnik Ulug'bek Fattaxov
Maqsud Abilov

Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqriz qilinmaydi va mualliflarga qaytarilmaydi. Mualliflar fikri tahririyat nuqtayi nazaridan farqlanishi mumkin. Gazeta Mudofaa vazirligi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar departamenti – "Vatanparvar" birlashgan tahririyatining kompyuter markazida sahifalandi.

Shu songa mas'ul:

podpolkovnik Gulnora Xodjamuratova

ISSN 2010-5541

Gazeta O'zbekiston Matbuot va axborot agentligida 2008-yil 6-iyunda 0535 raqami bilan ro'yxatga olingan.

Telefonlar:

kotibiyat: 55 511-25-90
buxgalteriya: 55 511-25-76
yuridik bo'lim: 55 511-25-72

Navbatchi: kapitan Dilshod Ro'ziqulov

Sahifalovchi: Dilnoza Meliqo'ziyeva

Musahhih: Zebo Sariyeva

Buyurtma: V-6099

Hajmi: 6 bosma taboq

Bichimi: A3

Adadi: 34 088 nusxa

Bosishga topshirish vaqti: 14:00

Topshirildi: 14:30

Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar. Gazetaning poligrafik jihatdan sifatli chop etilishiga "O'zbekiston" NMIU mas'ul.

Gazeta juma kuni chiqadi.

Gazeta 1992-yilning 24-iyunidan chiqq boshlagan.

Nashr ko'rsatkichi: 114.

Bahosi: kelishilgan narxda.

"O'zbekiston" nashriyat-matbaa ijodiy uyi bosmaxonasida chop etildi.

Bosmaxona manzili: Toshkent shahri, Alisher Navoiy ko'chasi, 30-uy.

1 2 3 4 5 6

Manzilimiz: 100095, Toshkent shahri, Olmazor tumani Sag'bon ko'chasi, 382-uy.

@Vatanparvargazetasi_bot
"Vatanparvar" birlashgan
tahririyati bilan bog'lanish
uchun telegram bot



BIZ HAQIMIZDA

www.mudofaa.uz

t.me/mv_vatanparvar_uz

t.me/mudofaavazirligi

www.mv-vatanparvar.uz

vatanparvar-bt@umail.uz

mudofaavazirligi

mudofaavazirligi

www.youtube.com/c/UzArmiya